

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM
VAZIRLIGI**

**Zahiriddin Muhammad Bobur nomidagi
Andijon davlat universiteti**

**FILOLOGIYA VA TILLARNI O'QITISH FAKULTETI
O'ZBEK TILSHUNOSLIGI KAFEDRASI**

IV bosqich "A" guruh talabasi

Isroilova Barchinoy

Tohir Malik asarlari tilining sotsiolingvistik tadqiqi
mavzusidagi

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Ilmiy rahbar:

O'zbek tilshunosligi kafedrasi
dosenti,
f.f.d. D.Nabiyeva

ANDIJON - 2016

MUNDARIJA

ISHNING UMUMIY TAVSIFI.....

KIRISH

I BOB. TIL VA JAMIYAT MUNOSABATI

1.1. Til ijtimoiy hodisa sifatida

1.2. Sotsiolingvistik tadqiqot parametrlari

II BOB. BADIY ASARLARDA SOTSIOLINGVISTIK OMILLARNING O’RNI (Tohir Malik asarlari misolida)

2.1. Antroponimlarning sotsiolingvistik tadqiqot obyekti sifatida.

2.2. Ijtimoiy qatlamlarning til xususiyatlari va ularning badiiy asarlarda berilishi.....

2.3. . Murojaat shakllari va mulozamat – manzirat ifodalovchi birliklarning sotsial xoslanishi

.....

UMUMIY XULOSA.

ADABIYOTLAR RO`YXATI.

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi. “Insoniyat, mamlakatlar va xalqlar hayotida XX asr poyoniga yetmoqda. Bizni - hozirgi O`zbekistonda istiqomat qiluvchilarning ko`pchiligini... chin voqelik muammolari bilan birga: “Bu yorug` olamda biz kimmiz va qayoqqa qarab ketyapmiz? Insoniyat yangi – XXI asrga qadam qo`yganida bizning o`rnimiz qayerda va qanday bo`ladi?” degan savollar o`ylantirishi tabiiy”.<sup>1</sup> Umumjahon xalqlari o`z-o`zining o`rnini qidirayotgan bir davrda Vatanimiz O`zbekistonning har bir yashovchisi o`z nutqi va odobida, o`z muomala madaniyatida o`zbeklarning dunyo xalqlari o`rtasidagi mavqeyining naqadar ustunligini namoyon qilayotgani ma`lumdir.

Shuning uchun ham olimlar inson tilini u yashab turgan jamiyat bilan chambarchas bog`liqligini isbotlab, o`z mulohazalarini ilmiy asosda bildirib kelmoqdalar.

G`arb va Amerika tilshunosligida sotsiolingvistika muammolariga doir bir qator tadqiqotlar yuzaga keldi. Bu tadqiqotlarning aksariyatida til bilan jamiyat o`rtasidagi munosabat, til taraqqiyotiga jamiyatning, sotsial omillarning ta`siri, ijtimoiy tilshunoslik bilan sotsiologiya, psixologiya, etnografiya, lingvistika, etnolingvistika va boshqalar orasidagi bog`liqlik, sotsiolingvistikaning tadqiq obyekti, predmeti, tilning ijtimoiy tarmoqlanishi, bu tarmoqlarning milliy tilga munosabati, tilning sotsial-differensial variantlari va ularda lisoniy variantlarning ko`rinishlari, muloqot jarayonida shaxslarning roli, nihoyat davlat til siyosatining til rivojiga ko`rsatadigan ijobiy va salbiy ta`siri va boshqalar haqida fikr yuritiladi.

O`zbek nasriga o`z asarlari bilan katta hissa qo`shib kelayotgan sevimli adibimiz Tohir Malikning asarlarida ham biz ayni shu jihatga e`tibor qaratamiz. Tohir Malik asarlari o`zbek adabiyotida yaratilgan adabiy meros orasida o`zining qiziqarliligi, hayotiyliigi, ta`sirchanligi, inson xarakterini va ruhiyatini haqqoniy gavdalantirganligi hamda turmushning murakkab muammolarini qalamga olganligi bilan ajralib turadi. Iste`dodli yozuvchi T.Malik ma`naviyatimiz xazinasiga o`zining

¹ I.A.Karimov. O`zbekiston XXI asr bo`sag`asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. – Toshkent; 1997, 3-b.

o`tkir nutqi, tilimizning boy imkoniyatlarini hamda xalqimizning tilidagi o`ziga xos xususiyatlarni mahorat bilan tasvirlab bera olgani bilan diqqatga sazovor. Badiiy matn asosida sotsiolingvistik omillarni o`rganishga qaratilgan tadqiqotlarning kam ekanligini ta`kidlagan holda bitiruv malakaviy ish uchun tanlangan mazkur mavzu o`z dolzarbligini belgilaydi.

Ishning maqsadi va vazifalari. T.Malik asarlarida til vositasining ijtimoiy guruhlardagi badiiy ifodasini o`rganish hamda badiiy nutq vositalarining sotsial xoslanganligini tahlil qilish ishning asosiy maqsadini tashkil qiladi. Mazkur maqsadga erishishi uchun til va jamiyat munosabati, badiiy asarlarda sotsiolingvistik omillarning o`rni, iste`mol doirasi chegaralangan so`zlarning badiiy ta`sirchanligi hamda hayotiy haqiqatga yaqinligini ta`minlashdagi ahamiyatini ko`rsatishni o`z oldimizga vazifa sifatida belgilaymiz.

Tadqiqot metodi. Ishni o`rganishda keyingi yillarda o`zbek tilshunosligida yaratilgan ilmiy asarlar, dissertatsiyalar, avtoreferatlardan keng va ijodiy yondashgan holda foydalanildi. Shuningdek ishda tavsifiy, qiyosiy, tasnifiy, kontekstual, component tahlil kabi tadqiqot metodlariga murojaat qilindi.

Ishningning obyekti va predmeti. Tohir Malikning asarlari tadqiqot obyekтини tashkil qiladi. Ularda qo`llanilgan sotsil xoslangan so`zlarning sotsiolingvistik xususiyatlari bitiruv malakaviy ishning predmetini belgilaydi.

Tadqiqot uslubiyati va uslublari. Dissertatsiyaning uslubiyatini belgilashda badiiy asarni tahlil qilishga yo`naltirilgan matn tilshunosligi, germeneytika hamda gender lingvistikasida faoliyat yurituvchi qator yetakchi olimlarning qarashlariga tayanildi. Ishni yoritishda, asosan, analiz, sintez, statistika va qayd qilish usullaridan foydalanildi.

**Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati va tatbig`i.** Tadqiqotda chiqarilgan xulosalardan umumta`lim maktablarida, litsey va kollejlarda universitetning filologiya fakultetlarida “Hozirgi adabiy o`zbek tili”, “Badiiy matn tahlili”, “Matn tilshunosligi”, “Sotsiolingvistika” kabi fanlari bo`yicha o`quv adabiyotlari yaratishda foydalanish mumkin. Shuningdek, mazkur tadqiqotda taqdim etilgan kuzatish va umumlashmalar badiiy matn nutqining sotsial jihatdan xoslanishi

yuzasidan kelajakda olib boriladigan tadqiqotlar samaradorligiga ma'lum darajada ijobiy ta'sir ko'rsatadi, deb umid qilamiz.

Tadqiqotning tuzilishi va tarkibi. Bitiruv malakaviy ish o'z oldiga qo'ygan maqsad va vazifalardan kelib chiqqan holda kirish, ikki bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatini o'z ichiga oladi.

Bajarilgan ishning asosiy natijalari. Shu yilda tilshunoslik kafedrasida nashr etilgan "Nutq madaniyati va o'zbek tilshunosligining dolzarb masalalari" to'plamida "Sotsiolingvistik faktorlar", "Tohir Malik asarlarida argo hamda jargon so'zlar" (Respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari) mavzularida ilmiy maqolalar e'lon qilindi.

I BOB. TIL VA JAMIYAT MUNOSABATI

Til kishilik jamiyatining asrlar davomidagi tarixiy-ijtimoiy tajribasi asosida yuzaga kelgan ijtimoiy hodisadir. Til va jamiyat taraqqiyoti uzviy bog'liqdir.

Jamiyatda ro'y beradigan har qanday voqelik, ma'lum ma'noda tilda o'z ifodasini topadi. Tilning ijtimoiy tabiati uning jamiyatda mavjud bo'lishi hamda jamiyat manfaatlariga xizmat qilishida namoyon bo'ladi.

1.1. Til ijtimoiy hodisa sifatida

Tilning paydo bo'lishi va rivojlanishi insoniyat jamiyati bilan mustahkam bog'liq. Til insoniyat tarixi qadar qadimiylidir.

Ta'kidlanganidek, til jamiyat taraqqiyoti bilan birga rivojlanadi, tilning grammatik qurilishi takomillasha boradi. Til taraqqiyoti jamiyat taraqqiyoti bilan uzviy bog'langan. Kishilik tarixidan shu narsa ma'lumki, avval urug'dosh tili, keyin qabila tili, elat, xalq va millat tili shakllangan.

Dialektlar urug'chilik davridan boshlab, jamiyat taraqqiyotining keyingi bosqichiga qadar son jihatdan ko'payib boradi. Bu qabilalarning yashash tarzi bilan bog'liq. Avval bir qabila ittifoqiga kirgan tillar markazdan uzoqlashgan sari ulardagi dialektal farq orta boradi va bu dialektal farqlar oxir-oqibatda yangi til paydo bo'lishi uchun asos bo'ladi. Dialektlar sonining ko'payishi va ular asosida yangi-yangi tillarning vujudga kelishi til taraqqiyotining **differensiatsiya** jarayonini tashkil qiladi. Differensiatsiya tillarning dialektlarga parchalanishidir.

Har bir millat o'z adabiy tilining mustahkamlanishi uchun harakat qiladi. Jamiyat taraqqiyotining keyingi bosqichlarida dialektlar kamayib, adabiy tilga yaqinlasha borishi kuzatiladi. Buni adabiy til ta'sirining kengayishi bilan izohlash mumkin. Til taraqqiyotidagi bu jarayon **integratsiya** deb yuritiladi. Integratsiya bir tilga mansub shevalarning adabiy til me'yorlariga yaqinlashuvidir. Bunday jarayonlar tasodifan yuz bermaydi, balki jamiyat taraqqiyotiga, ijtimoiy hayotning taraqqiyot jarayonlariga bog'liq tarzda sodir bo'ladi.

Til va jamiyat o'rtasidagi munosabatlarni, tilning falsafa, ijtimoiy psixologiya, etnografiya bilan bog'liq jihatlarini o'rganuvchi soha **sotsiolingvistika** (ijtimoiy tilshunoslik) dir. Sotsiolingvistika quyidagi masalalarni o'rganadi:

1. Jamiyat va til o'zaro bog'liq, mutanosib tarixiy jarayon, hodisadir.
2. Jamiyat taraqqiy eta borgan sari tilning ijtimoiy vazifalari ham takomillashib boradi.
3. Adabiy tilning, shevalarning lug'at boyligi kengayadi, ortib boradi.
4. Yashash muhiti yaqin, turmush tarzi o'xshash hamda o'zaro iqtisodiy munosabatlari shakllangan xalqlarning tillari bir-biriga ta'sir ko'satadi. Tillar leksik jihatdangina emas, balki grammatik jihatlariga ko'ra ham ta'sirlashadi.

Dunyo tillarining, ma'lum ma'noda, o'ziga xosligini yorituvchi, muayyan tilning boshqa tillardan farqli jihatlarini ko'rsatuvchi tadqiqotlar yaratilgan. Mazkur tadqiqotlarning bosh masalasi til va jamiyat munosabati talqinidir. Tilning jamiyat bilan bog'liq tomonlarini o'rganish tilning o'ziga xos ichki qurilishi, imkoniyatlarini yoritishda ahamiyatlidir.

Kishilik jamiyati taraqqiyoti davomida aloqa-munosabat vositasi bo'lgan tilning jamiyatga bo'lgan nisbatini turlicha izohlashgan. Har xil fikrlar, turli nazariyalar vujudga kelgan. Ba'zi guruhlar tilni tirik organizm sifatida tushunishgan. Ba'zilar o'zgarmas voqelik sifatida qarashgan. Bunday qarashlarni tanqidiy-tahliliy ravishda o'rganib, quyidagicha umumlashtirish mumkin:

1. Til tabiiy-biologik hodisa emas.
2. Tilning mavjud bo'lishi va uning taraqqiyoti tabiat qonunlariga bog'liq emas.
3. Til kishilarning tabiatiga, irqiga, nasliga aloqador emas.
4. Jamiyat bo'lib uyushgan kishilargina aloqa-munosabat vositasi bo'lgan tilga ega. Til kishilik jamiyatining asrlar davomidagi tarixiy-ijtimoiy tajribasi asosida yuzaga kelgan ijtimoiy hodisadir. Til va jamiyat taraqqiyoti uzviy bog'liqdir. Jamiyatda ro'y beradigan har qanday voqelik, ma'lum ma'noda tilda o'z ifodasini topadi. Tilning ijtimoiy tabiati uning jamiyatda mavjud bo'lishi hamda jamiyat manfaatlariga xizmat qilishida namoyon bo'ladi.

Sotsiolingvistika tilning ijtimoiy tabiatini tahlil qiluvchi asosiy soha hisoblanadi. Sotsiolingvistika tilning ijtimoiy tabiatini yoritishda **tarixiylik, hayotiylik, me'yoriylik, hududiylik** kabi qator mezonlarga amal qiladi.

Avvalo, til voqelik sifatida mavjud bo'lishi uchun muayyan tarixiy taraqqiyot bosqichini o'tishi kerak. Tilning paydo bo'lishi, yaxlit tizim tarzida shakllanishi, ijtimoiy hodisa sifatida mavjudligi uning **tarixiyligi** bilan bog'liq.

Tilning **hayotiyligi** uning aloqa-munosabat vositasi sifatida mavjuligidir. Til hayotiyligini yo'qotsa, o'lik tilga aylanadi. Til hayotiy bo'lishi uchun shu tildan foydalanadigan jamiyat zarur bo'ladi. Ba'zan o'lik tillar qaytadan tirik tilga aylanishi mumkin, degan fikr ham mavjud va buning isboti sifatida ivrit tilini misol qilib keltirish mumkin. Bu qarashni nisbiy deb baholash kerak. Negaki, til aloqa munosabat vositasi sifatidagi ahamiyatini yo'qotdimi, uni sun'iy ravishda tiklab bo'lmaydi.

Sotsiolingvistikadagi **me'yoriylik** mezoni deyilganda tilning muayyan me'yorlar asosida muvofiqlashtiriluvi tushuniladi. Til grammatikasiga oid qonun-qoidalarining yaratilishi me'yorlashtirishning muhim omillaridan hisoblanadi. Me'yorlashtirilgan til muayyan jamiyatning ehtiyoji uchun xizmat qiladigan, muayyan qonun-qoidalar asosida muvofiqlashtirilgan milliy-adabiy tildir.

Hududiylik tilning ma'lum hudud bilan bog'liqligini ifoda etadi. Hududiylik millat, elatga xos urf-odat, an'analar, tarixiy-etnik birlik va yagona davlat tizimining shakllanganligi bilan bog'liq. Millatning, hududning, tarixiy-etnik asos va taraqqiyotning boshqa-boshqaligi tillar o'rtasidagi farqlar uchun asos bo'ladi. Millat va etnik asosning bir xil bo'lishi hududning farq qilishidan qat'i nazar, aloqa-munosabat vositasining bir xil bo'lishini ta'minlaydi. Masalan, o'zbek va tojik tillarida har bir tilning o'ziga xosligi ko'zga tashlanadi. Bir xil etnik asosga ega bo'lgan o'zbek va qirg'iz tillari o'rtasida fonetik, leksik, grammatik farqlar bor. Adabiy til va shevalar o'rtasida ham tilning ichki tuzilishi bilan bog'liq farqlar kuzatiladi.

Tabiat va jamiyatda hamma narsa bir-biri bilan uzviy bog'langan, biri ikkinchisini taqozo etadi. Tabiatdagi biror o'zgarish, albatta, jamiyatga o'z ta'sirini o'tkazadi. Jamiyatdagi har bir o'zgarish esa tilda o'z aksini topadi. Shu sababli ham til doimo rivojlanib, takomillashib boradi. Bu holat tilning leksikasida yaqqol

namoyon bo'ladi: yangi so'zlar paydo bo'ladi, qaysidir so'z iste'moldan chiqib ketsa, qaysi bir so'z semantikasida o'zgarish sodir bo'ladi. Ayni shu jarayonda so'z o'zlashtirish hodisasi amalga oshadi. Negaki, har qanday til qanchalik rivojlangan bo'lmasin, baribir o'z ehtiyojini faqat o'z qatlam so'zlari hisobiga qondira olmaydi. Xalqlar o'rtasidagi siyosiy, iqtisodiy va madaniy aloqalar natijasida bir tildan ikkinchi tilga yangi so'zlar qabul qilinadi. Bu hozirgi paytda tabiiy jarayon hisoblanadi. Xo'sh, ushbu jarayon qay tarzda amalga oshadi? Uning ilmiy-nazariy asoslari nimadan iborat? Xususan, so'z o'zlashtirish jarayonining lisoniy (lingvistik) va nolisoniy (ekstralingvistik) omillari nimalarda namoyon bo'ladi? Nazarimizda, ayni shu masalalarning to'g'ri yechimini topish amaliy jihatdan katta ahamiyat kasb etadi.

Tilshunoslik, falsafa yoki yana ilmlarda qanday talqin qilinishiga qaramasdan, oldin til, undan keyin tafakkur yoki oldin tafakkur, keyin til paydo bo'lgan deb bo'lmaydi, har ikkisi birgalikda, qanchalik ibtidoiy bo'lmasin, bir paytda bo'lganligini e'tirof etish maqsadga muvofiqdir. Antroposentrik tilshunoslikdagi til va tafakkurning bog'liqligi borasidagi yetakchi hodisalar ham shuni ko'rsatadi. Zotan, Sepir-Uorf gipotezasi – "lisoniy nisbiylik nazariyasi" atrofidagi jiddiy va uzoq bahs-munozaralar maxsuli o'laroq bu nazariyaning kuchli va kuchsiz variantlari yuzaga keldi, "til tafakkurni belgilaydi" (kuchli variant) yoki "til tafakkurga yetadi" (kuchsiz variant). Ko'rinib turganiday, har ikki variantda til va tafakkurning o'zaro chambarchas bog'liqligi o'z ifodasini topgan holda, tilning tafakkurga, tafakkurning esa tilga faol ta'siri ochiq haqiqatdir. Zotan, "milliy ong", "milliy tafakkur", "milliy madaniyat", "milliy ma'naviyat", "milliy mentalitet", "milliy xarakter" bugun keng iste'molda bo'lgan juda ko'plab istilohlarda mazkur bog'liqlik e'tirof etilgan, chunki milliylik tushunchasining mag'zini til tashkil qiladi. Milliy tafakkur tarzini til tayin etadi va mutlaqo nisbiy bir intizomda tafakkur takomili tilning tadrijini ta'minlaydi.

Tilning taraqqiyotida uning sohibi mutlaqo hal qiluvchi rol o'ynaydi. Til o'z egasining inon-ixtiyori, e'tiqod-u ehtiyoji, aqliy-ruhiy salohiyati, tafakkur va tahayyul talablaridan tamoman muxtor holda takomil sari odim o'tish

imkoniyatidan tamomila mahrumdir. Tildagi har qanday harakat, kattadir-kichikdir, muayyan maqsadga ko'ra yuz beradiki, bu maqsad faqat til egasi bo'lmish odam bolasigagina mansub bo'lishi mumkin, xolos. Ayni paytda shuni ham aytib o'tish joizki, tildagi muayyan o'zgarishlar yoki til taraqqiyoti uchun emas, balki tilni o'z o'zanidan chiqishiga yo'l ochadigan holatlar ham odamlar, lekin ayni til egasi bo'lmagan "begona" kishilar, noodil siyosat, boshqa tilning bosqini kabi omillarning ta'siri natijasida yuzaga keladi.

Tildagi o'sish-o'zgarishlarning xolis va birlamchi ko'zgusi uning lug'at boyligidir, jamiyatdagi, kattadir-kichikdir, har qanday o'zgarishlar, eng avvalo, aynan xuddi shu leksik sathda o'z aksini topadi. O'zbek tilshunosligining taniqli namoyandalaridan biri E.Begmatov haqli ravishda ta'kidlaganidek, "leksika jamiyat hayotida yuz bergan iqtisodiy, siyosiy, madaniy-ma'rifiy o'zgarishlar va yangiliklarni o'zida birinchi bo'lib ifoda qiladi. Bunday o'zgarishlar tilni yangi tushuncha va tasavvurlar bilan, ularni ifodalashga xizmat qiluvchi yangi so'zlar bilan boyitib boradi. Shu bilan birga, ma'lum vaqt o'tishi bilan til lug'at sostavidagi ba'zi so'zlar iste'moldan chiqadi yoki ular tilning passiv qatlamiga o'tadi. Mana shunday jarayonlar til leksikasida uning boshqa sohalariga nisbatan ko'proq yuz berib turadi".

O'zbek tili, shubhasiz, yer yuzidagi eng qadimiy tillardan biridir. Tabiiyki, bu tilning lug'at boyligi miqdor jihatidan ham, ranginlik va ifoda imkoniyatlari jihatidan ham benihoya muazzam va muhtashamdir. Bu, albatta, o'zbek xalqining ming yillik tafakkuri va taxayyulining qamrovidan, sarhadsizligidan dalolat beradi.

Butun umrini o'zbek tili lug'at boyligini miridan-sirigacha xijjalab o'rganishga bag'ishlagan E.Begmatov o'zbek tili umumiy lug'at boyligining quyidagi guruhlardan tarkib topishini qayd etgan: 1. Keng iste'moldagi so'zlar (umumiste'mol leksika). 2. Kasb-hunar so'zlari (professional leksika, kasbiy leksika). 3. Dialektal so'zlar. 4. Eskirgan so'zlar (arxaizm, istorizmlar). 5. Ilmiy terminologiya. 6. Jargonlar. 7. Adabiy va dialektal frazeologiya. 8. Atoqli otlar. Bu

guruhlar sirasiga yana to‘qqizinchi guruh o‘laroq yangi so‘zlar (neologizmlar)ni ham kiritish mumkin.

Antroposentrizmning ilmiy tadqiqotlarning asosiy tamoyiliga aylanishining sababi unda inson u yoki bu hodisalarning tayanch nuqtasi bo‘lib, uning o‘zi mazkur tahlilga jalb etiladi. Darhaqiqat, til insongagina xos bo‘lgan xususiyat bo‘lib, uni tafakkurdan ayri holda tasavvur etib bo‘lmaydi. Shuning uchun tilni, uning sathlarini antropotsentrik paradigmada, ya’ni ma’lum bir til hodisalariga inson omilining ta’sirini ham inobatga olgan holda tadqiq qilish yana ham kengroq imkoniyatlar eshigini ochib beradi. Chunonchi, til hodisalari o‘z-o‘zidan emas, balki bevosita insonning amaliy faoliyati, muloqoti jarayonida takomillashadi, yangilanib boradi, uning ba’zi birliklari iste’moldan chiqadi. Til o‘z holicha mavjud bo‘la olmaydi. Tilning shakllanish nuqtasida ham, maqsad yo‘naltirilgan yakuniy nuqtasida ham inson turadi, ya’ni til inson tomonidan qo‘llanadi va unga xizmat qiladi. Mazkur jarayonda bevosita insonning aqliy, ruhiy holatlari tilga o‘zining sezilarli ta’sirini o‘tkazadi. Inson psixikasi, tafakkuri juda murakkab. Tafakkurning tilda ifodalanishi va o‘z navbatida til reallashuvi orqali ma’lum fikrlarning shakllanish – tabiatda suvning aylanishi singari to‘xtovsiz, abadiy jarayondir.

Bugungi tilshunoslikning antropologik asoslar zahirida barpo etilishi ham “Inson va til” yagona nazariyasining yaratilishini nazarda tutadi. Darhaqiqat, “Tilda inson” yoki antropotsentrizm tamoyili dunyo tilshunosligida uzoq vaqtlardan beri diqqat markazidagi masaladir. XX asrning oxirlaridayoq I.A.Boduen de Kurtene o‘zining “Fonologiya” (1899) ishida antropofonika to‘g‘risida fikr yuritadi va uni insonning nutq tovushlarini o‘rganuvchi fan sifatida izohlaydi.

1.2. Sotsiolingvistik tadqiqot parametrlari

Sotsiolingvistika atamasining paydo bo‘lganiga ko‘p bo‘lgani yo‘q. Unga qardosh bo‘lgan etnolingvistika va psixolingvistikadan farqli o‘laroq sotsiolingvistikaga aniq ta’rif berish qiyin.

“O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi”da “Sotsiolingvistika (lot. *socios* – jamiyat va *lingvistika*) – tilshunoslik, sotsiologiya (jamiyatshunoslik), ijtimoiy psixologiya, etnografiya fanlari tutashmasida rivojlanuvchi va tilning ijtimoiy tabiati, uning ijtimoiy vazifalari, ijtimoiy omillarning tilga ta’sir ko’rsatish mexanizmi hamda tilning jamiyat hayotida tutgan o’rni bilan bog’liq ko’plab muommolarni o’rganuvchi ijtimoiy- nazariy soha”² deyilgan.

Aslida, aytish mumkinki, sotsiolingvistika tadqiqotlari “til sotsiologiyasi” nomi bilan olib borilib, jamiyat va til orasidagi munosabatlarni o’rganadi. Agar biz aniqroq gapirmoqchi bo’lsak, sotsiolingvistika unga yondosh bo’lgan sohalardan “til-jamiyat” munosabatini o’rganish yuzasidan tilshunoslikka zamonaviy yondashib, til va jamiyatni qandaydir birlikning bo’laklari emas, balki alohida tizim sifatida qaraydi. Bunday holatda sotsiolingvistikaning vazifasi jamiyat hamda til tizimlaridagi aloqa, ya’ni bog’liqlikning omillarini o’rganishdir.

Sotsiolingvistika o’zining fan sifatidagi izlanishlarida tilshunoslik tizimidagi uslublardan foydalansa-da, biroq u tilni alohida birlik sifatida o’rganuvchi tilshunoslikdan farq qiladi. Sotsiolingvistikaning eng muhim vazifalaridan biri – tilgdagi o’zgarishlarni jamiyatdagi o’zgarishlar bilan bevosita bog’liq ekanligini o’rganishdir. Bu va boshqa jarayonlarda ham tilning o’zgarishi yoki rivojlanishini o’rganish sotsiolingvistikaning asosiy tadqiqot obyekti hisoblanadi. Albatta, bu fikrlar ko’p qirrali sotsiolingvistika imkoniyatlarini yetarlicha izohlay olmasligi mumkin. Ehtimol, biz har jihatdan ko’rib chiqiladigan sotsiolingvistik tadqiqotlarning parametrlarini yoritish orqali ko’rib chiqsak, masalaga oydinlik kiritarmiz.

Sotsiologik izlanish obyekti odatda ikki yoki undan ortiq bo’lgan sohalarda amalga oshiriladi. Quyida biz bu parametrlarning yettitasini ko’rib chiqamiz. Sotsiologik izlanish obyekti o’z ichiga turli ijtimoiy faktorlarni, aynan tildagi farqlarga aloqador xususiyatlarni qamrab oladi. Bu faktorlarning miqdori vaqti kelib o’zgarishi mumkin, lekin asosiy izlanishlar quyidagi uch faktorni ta’kidlaydi:

1) axborot uzatuvchi;

² O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. 8-jild. Toshkent, 2004. 26-bet.

2) qabul qiluvchi;

3) muhit.

I. *Axborot uzatuvchi* (so'zlovchi) ning ijtimoiy kelib chiqishi ayrim sohaga xos shevada ko'proq namoyon bo'ladi. Ayniqsa bu Hindistondagi tabaqalarning shevalarida kuzatiladi. Shuningdek erkaklar va ayollar orasidagi nutqda ham buni uchratishimiz mumkin.

II. *Qabul qiluvchi* (tinglovchi)ning ijtimoiy kelib chiqishi ko'proq Sharq tillariga xosdir. Masalan, yoshi kattalarga murojaat qilinayotganda hurmat belgisi sifatida alohida shevada so'zlanadi. Yana bir o'ziga xos nutq uslubi "bolalar nutqi" bo'lib, bu bolalarning so'zlash uslubi emas, balki kattalarning bolalarga gapirish usuli ham bir qancha tillarga xosdir. Tinglovchiga taaluqli bo'lgan nutq turi yana hindlarga aloqador bu maxsus usul bukri, bir ko'zi so'qir, pakana odamlar bilan suhbat jarayonida, hattoki ular yo'qligida ham, ular haqida gapirilganda ham saqlanadi.

III. Uchinchi parameter muhit bo'lib, u yuqoridagilardan boshqa so'zlashuvga aloqador barcha elementlarni o'z ichiga oladi. Deyarli barchat tillarda ijtimoiy muhit tufayli vujudga kelgan atamalar bunga misol bo'la oladi.

IV. Albatta, yuqorida aytilgan uch parametрни bir-biridan ajratib bo'lmaydi. Aksincha sotsiolingvistikaning o'ziga xos turlari bilan o'zaro bog'liq. Masalan, hindularning ayollar va erkaklar nutqi so'zlovchiga ham, tinglovchiga ham bog'liq. Agar suhbatdoshlar ichida erkak bo'lsa, erkaklar nutqidan foydalanilsa, ayollar nutqi esa ayollarning o'zaro tili hisoblaniladi.

To'liq til etiketi axborot uzatuvchi, qabul qiluvchi va muhit faktorlarga asoslangan bo'ladi. Shuningdek bu uch xususiyatni ba'zan alohida olib o'rganishimiz ham mumkin. Aytaylik, so'zlovchi yoki tinglovchining yoshi, ijtimoiy kelib chiqishi, qarindoshlik aloqalari ham rol o'ynaydi.

Yuqorida aytib o'tilgan faktorlar tillar o'rtasidagi farqni ko'rsatibgina qolmay, tekshirishlarning asosi ham bo'la oladi. Masalan, hindlarning sinfiy dialektlarini o'rganishda biz ikkala turni ham ko'rishimiz mumkin.

V. Yana bir muammoli fikr Xyonigsvald tomonidan tashlangan bo'lib Los-Anjelesdagi konferensiyada munozaralarga sabab bo'lgan. Unda aytilishicha insonlar o'z ona tilida fikrni o'z tiliga xos bersa, boshqa tilda o'sha tilga xos xususiyat bilan berishga harakat qiladi. Bu millat tilshunosligi deb atalib, sotsiallingvistikaning qiziqarli mavzularidan biridir. Ko'p davlatlarda aholi orasida nutq "yuqori" va "quyi" nutqlariga ajratiladi, xuddi rasmiy va norasmiy til singari.

Bunday hollarda biz xalq tiliga yengil qaramasligimiz kerak, chunki xalq tili uzoq yillardan beri sayqallanib, dono fikrlar bilan boyib boradi.

VI. Keyingi parametr – turli-tumanlik o'lchovlari. Bu atama geografik o'lchovlarga yoki tildagi so'zlarning soniga ham asoslanmagan. U jamiyatdagi tillarni yoki bir tilning har xil joylarda tarqalgan variantlarini o'zaro farqlaydi. Bu o'lchovlarni ham biz uch turga bo'lamiz.

1. Multidialekt – bunda bir tilning bir jamiyat yoki xalq orasida millat tilini o'rganiladi. Masalan, Buyuk Britaniyadagi yuqori sinf vakillari va bu sinfga kirmaydiganlarning tilidagi farq, shuningdek Janubiy Hindistonning rasmiy va norasmiy tilidagi farqlar kuzatiladi.

2. Ko'p tillilik – bunga bir jamiyatdagi xalqlarning turli tillarda gaplashishi kiradi. Bunday ko'p tillarda gaplashuvchi aholilar Belgiya, Gana, Hindiston, Kanada, Paraguay mamlakatlarida uchraydi.

3. Ijtimoiy xilma-xillik (multisotsialniy). Bu tilning turli jamiyatlarda ishlatilishida kuzatiladi. Tadqiqotchining vazifasi tilning jamiyatda yoki tilshunoslikdagi farqini o'rganishdir. Uorfning gipotezasiga ko'ra til ma'lum bir jamiyatda madaniyat o'zgarib borishi bilan o'zgarib, sayqallanib boradi. Uorfning farazi ingliz tilini Britaniyada va Amerikada qo'llanilishi va Britaniya ingliz tili va Amerika ingliz tili grammatikasi orasidagi farqlarga mos keladi. Keyinchalik Fisherning (1966) Ponap orolidagi xalqlarning til va jamiyat tuzilishining tahlillarida ko'rishimiz mumkin.

VII. Keyingi parametr - tilning qo'llanilishi. Bunda ham tadqiqotning uch turini ko'rib chiqamiz.

1. Birinchi qo'llanilishi jamiyatshunosning qiziqishlariga mos keladi. Sotsiolingvistikaning faktori – jamiyatning to'liq yoki ayrim qismlarini qamrab olgan tilning ishlanilishi. Masalan, Janubiy Hindistonning sinfiy dialektlarini olsak, u uchga bo'linadi: a) rasmiy; b) ayrim joylarda yashovchi hindlarning tili; c) butun mamlakatning tili.

Til so'zlovchining ijtimoiy kelib chiqishi, gapirilayotgan muhit, tinglovchining shaxsiga bog'liq ravishda tanlanadi.

2. Ikkinchi tur esa til tarixi bilan bog'liq. Bunda quyidagi masalalar o'rta tashlanadi:

Tildagi o'zgarishlar turli ijtimoiy sharoitlarda turlicha bo'ladimi?

Bir tilning turli jamiyatlardagi o'zgarishlari bir xil sur'atda boradimi yoki farq qiladimi?

Ijtimoiy dialektlarda tilning tarixi muhim o'rin tutadimi?

Tadqiqotchi bu savollarga tarix manbalardan yoki tilning rivojlanish tarixidan javob topishi mumkin. Masalan, U.Labovning Nyu-York va Martas-Vinyard orolidagi til o'rganish jarayonlarini kuzatganidek.

Uchinchi qo'llanilishi til loyihachilariga bog'liq. Tilshunos, maorif xodimlari, huquqshunoslar, qonun chiqaruvchilar, rasmiy tilga aloqasi bo'lgan rahbarlar til loyihachilari hisoblanadi.

Turli tillar va dialektlarda gaplashuvchi aholi jamiyatini o'rganayotgan tadqiqotchi quyidagi savollarga duch keladi: tilning qaysi birliklari rasmiy yoki norasmiy, qaysi so'zlar rasmiy-publistik usulda, qaysi so'zlar keng miqyosdagi kitobxon uchun yoki ta'lim muassasalari, sud tizimlariga xos bo'lishini aniqlash lozim? Mavjud sharoitda tatbiq etilayotgan rasmiy til qanday bo'lishi mumkin edi? Xatlar yozilishida o'zgarishlarning sodir bo'lishi yoki ma'lum normalarga amal qilinishi qanday bo'lgan?

Bunday muammolarga til o'rganayotgan odamlar, albatta, hammasi duch keladi. Ayniqsa, Osiyo va Afrika xalqlari yoshlari o'zi yashab turgan jamiyat va undagi normalar turlicha bo'lganligi sababli boshqa tillarni o'rganishdagi shunday muammoga duch keladi. Yuqorida aytib o'tilgan muammolar sotsiolingvistlarning

keying yillardagi olib borilayotgan izlanishlarida aks etmoqda. Lekin hali yechimini topishi lozim bo'lgan muammolar talaygina. Yangi tadqiqotlar o'z navbatida yangi dalil, isbotlarni talab qiladi. Shu bilan birga kelgusi tadqiqotlarning istiqboli aniq va ravshan.

Sotsiolingvistika yangi davrga yuz tutmoqda. Kelajakda biz tilshunoslar, jamiyatshunoslar va til tarixchilarining hamkorlikda sotsiolingvistika sohasidagi tadqiqot natijalarini, yutuqlarini ko'rishga umid qilamiz.

II BOB. BADIY ASARLARDA SOTSIOLINGVISTIK OMILLARNING O'RNI (Tohir Malik asarlari misolida)

O'zbek fantastik adabiyoti taraqqiyotiga sezilarli ta'sir ko'rsatayotgan ijodkorlardan biri Tohir Malik asarlarida badiiy til bobida o'ziga xos so'z

san'atkoridir. Yozuvchining asarlarida o'ziga xos va o'ziga mos ravishda qo'llangan argo va jargon so'zlar o'z o'rnida ifodalangan. Ijodkor bu so'zlarni qo'llash orqali hissiy ta'sirchanlikni oshirish va ma'lum bir guruh, qatlam yoki tabaqa vakillarining jonli so'zlashuvini tasvirlab bergan.

2.1. Antroponimlarning sotsiolingvistik tadqiqot obyekti sifatida.

Tilshunoslik fanida antroposentrizm tamoyilining turlicha talqinlari mavjud. Birinchi yondashuv til haqidagi fan obyektiga "til shaxsi"ni qo'shishni nazarda tutadi. Ikkinchi yondashuv ham tilni insonning bir qismi sifatida tan olish bilan bog'liq bo'lib, zamonaviy lingvistik falsafada o'z aksini topmoqda. Uchinchi yondashuv insonni tilshunoslik predmeti sifatida tadqiq etadi. Oxirgi yondashuv esa tilni insonni inson qiladigan tashkil etuvchi sifatida tan olishga asoslangan. Antropotsentrik tamoyilni amalga oshirishning oxirgi yondashuvi V.Gumboldt tomonidan ishlab chiqilgan bo'lib, mazkur yondashuv insonshunoslik va tilshunoslik fanlarining lingvosotsiologiya (sotsiolingvistika), lingvognoseologiya, lingvoetnologiya (etnolingvistika), lingvopaleontologiya va nihoyat lingvokulturologiya va til falsafasi kabi yo'nalishlarida tobora dolzarb ahamiyat kasb etib bormoqda. Ayrim tadqiqotchilar mazkur holatni XX asr filologiyasidagi "*antroposentrik siljish*" deb ataganlar. Antropotsentrik aspekt til va tafakkur munosabati, til va nutqning vujudga kelishi, zamonaviy og'zaki nutq, leksikologiya, leksikografiya, kognitiv lingvistika, olamning til manzarasini o'rganishga bag'ishlangan turli yo'nalishlari singari masalalarga bag'ishlangan ko'p sonli zamonaviy tadqiqotlarning ham asosini tashkil etadi. Ularda qayd qilingan fikrlarga tayangan holda til va uning sathlarini antroposentrik paradigmada tadqiq qilish maqsadga muvofiq degan xulosaga kelish mumkin. Xususan, o'zbek tiliga bu tarzdagi yondashuv so'nggi yillarda kirib keldi va tilshunoslarimizning e'tiborini jalb etdi. Antroposentrizm tamoyilining tilni tadqiq qilishdagi ahamiyati, o'zbek tilidagi matnlarni antroposentrik paradigmada tadqiq qilish muammolariga bag'ishlangan ilmiy asarlar yuzaga keldi.

Hozirgi kunga kelib tilshunoslikda antroposentrik omil o'z o'rniga ega bo'ldiki, buning oqibatida lisoniy metodologiya antroposentrik tamoyil bilan boyidi, kognitiv tilshunoslik, psixolingvistika, lingvokulturologiya kabi sohalar til hodisalarini "tilning ichida" emas, balki til egalari bilan munosabatlari asosida tadqiq qilmoqdalar. Terminologiyaga bag'ishlangan tadqiqotlarda soha terminlarining semantik-struktur xususiyatlari, shakllanish va taraqqiy etish manba va usullari, soha terminlarining lug'atlarda berilishi singari jihatlari qamrab olingan. Tilshunoslikning hozirgi talablaridan kelib chiqib, istiqbolda bajarilishi ko'zda tutilgan terminologik tadqiqotlarni yuqoridagi tilga olingan masalalar bilan bir qatorda antroposentrik paradigmada ham tadqiq qilish yanada maqsadga muvofiq bo'ladi.

Tadqiqotlarda antroposentrik tamoyilni qo'llashga turtki bo'layotgan omillardan biri tilshunoslikda inson omili yetakchi mavqega ega bo'lib borayotganligi bilan bir qatorda iqtisod fanlarida ham fan-texnika inqilobi avj olib borayotgan sharoitda inson omili unsurlari jamiyat taraqqiyotini belgilab beruvchi ijtimoiy, demografik, iqtisodiy va siyosiy tuzilishga ega bo'lgan jamiyat hayotining bir jamoaviy subyekti sifatida qaralayotganligidir.

Inson deyarli barcha fanlarning tadqiqot obyekti bo'lganligi uchun terminologik tadqiqotlarda inson omilini tadqiq qilish jarayonida aniq tasavvurlarga ega bo'lish maqsadida falsafa, psixologiya singari fanlarning xulosalariga murojaat qilishga to'g'ri keladi. Zero, tilshunoslikdagi eng yangi yo'nalishlar aynan uning boshqa fanlar chorrahasidagi "kesishuvi" bilan uzviy bog'liq bo'lib qolmoqda. Mazkur holatda inson omili deganda insonga xos bo'lgan umumiy xususiyatlar: uning ruhiyati, irodasi, qiziqishlari, motivlari inobatga olinadi. Jumladan, tilshunoslikka turli psixologik kategoriyalar o'zlashtirilib, ular o'zaro hamohanglikda tadqiq qilinmoqda.

Har bir individning o'ziga xos jihatlari til strukturasi, uning qo'llanilish ko'lamiga ta'sir etishi mumkinligini nazarda tutish, insonning ijtimoiy mavqeyini lingvistik nuqtayi nazardan anglash muhim.

Birinchidan, ijtimoiy mavqe (status) jamiyatni birlashtirib turuvchi element sifatida qator til birliklarining semantikasida u yoki bu ko‘rinishda barqarorlashgan holda insonlarning xulqini belgilaydi. Status - normativ kategoriya bo‘lib, statusli munosabatlarni tahlil qilish jarayonida tabiiy tilda kodlashgan holatda mavjud bo‘lgan jamiyat tuzilishining tamoyillarini o‘rganish mumkin.

Ikkinchidan, ijtimoiy mavqe (status) pragmatik mohiyatning baho berish, modallik, emotivlik, stilistik registr singari turli belgilar qatoriga kiruvchi komponentidir. Ularning tabiati, o‘zaro aloqadorligi, tanlov kombinatorikasini aniqlash ma’lum darajada tilning pragmatik jihatining spetsifikasini aniqlash demak. Insonning ijtimoiy mavqeyi pragmatika bazasidagi sotsiolingvistika va lingvistik semantikaning tushunchalar tizimini birlashtiruvchi mavhum tushunchalar sirasiga kiradi.

Til -madaniyat-etnos o‘zaro chambarchas bog‘liq bo‘lib, tilshunoslikning zamonaviy paradigmasi terminologik tadqiqotlarni inson omilini inobatga olgan holda antroposentrik tamoyil asosida olib borishga keng imkoniyatlarni ochib bermoqda. Chunonchi, lingvistik tadqiqotlarning zamonaviy bosqichida tilni faqat muloqot vositasi sifatida emas, xalq madaniyatining ajralmas komponenti sifatida o‘rganish maqsadga muvofiqligi ma’lum bo‘lib bermoqda. Bu holat, o‘z navbatida, tilshunoslik, psixologiya, falsafa singari qator fanlar zaxirasini yangidan yangi bilimlar bilan boyitishga xizmat qiladi.

Ma’lumki, sotsiologiya jamiyatning rivojlanish qonuniyatlari, torroq ma’noda ijtimoiy guruhlar, ijtimoiy sistemalarning yashashi va taraqqiyot xususiyatlarini, uni harakatlantiruvchi kuchlarni o‘rganuvchi fandır.

Tilning taraqqiyotiga jamiyatning, aksincha jamiyat rivojiga tilning ta’siri, buning omillari, qonuniyatlarini tadqiq qiluvchi sohani sotsiolingvistika (ijtimoiy tilshunoslik) deb yuritilmoqda.

G‘arb va Amerika tilshunosligida sotsiolingvistika muammolariga doir bir qator tadqiqotlar yuzaga keldi. Bu tadqiqotlarning aksariyatida til bilan jamiyat o‘rtasidagi munosabat, til taraqqiyotiga jamiyatning, sotsial omillarning ta’siri, ijtimoiy tilshunoslik bilan sotsiologiya, psixologiya, etnografiya, lingvistika,

etnolingvistika va boshqalar orasidagi bog'liqlik, sotsiolingvistikaning tadqiq obyekti, predmeti, tilning ijtimoiy tarmoqlanishi, bu tarmoqlarning milliy tilga munosabati, tilning sotsial-differensial variantlari va ularda lisoniy variantlarning ko'rinishlari, muloqot jarayonida shaxslarning roli, nihoyat davlat til siyosatining til rivojiga ko'rsatadigan ijobiy va salbiy ta'siri va boshqalar haqida fikr yuritiladi.

“Sotsiolingvistika sotsiologiyaning tarkibiga kiradimi yoki tilshunoslik tarkibigami yoxud mustaqil sohami?” “Sotsiolingvistika o'z mustaqil obyekti, predmeti va metodlariga egami?” – deyilgan savollar yuzasidan munozaralar davom etmoqda. Ba'zi ishlarda **umumiy sotsiologiya**, **makrosotsiologiya** va **mikrosotsiologiya**, **sotsiolingvistika** va **lingvosotsiologiya** haqida gap boradi.

Biz quyida sotsiologik tadqiq usulining onomastik tizimga, jumladan, antroponimiya tizimiga tatbiqi masalalarini ko'rib o'tamiz. Buni shartli ravishda **onomasiologiya** deb yuritish mumkin. Chunki til va jamiyat o'rtasidagi aloqa va ijtimoiy munosabatlar antroponimiya taraqqiyotida sotsial omillarning o'rni va roli, ayniqsa, antroponimlarning yuzaga kelishi, uning ijtimoiy-komunikativ va nominativ vazifalarida, ijtimoiy tarmoqlanishida yorqin ko'rinadi.

Tilda shunday vositalar – lisoniy birliklar mavjudki, ularning tabiati, paydo bo'lishi, vazifalari, rivojlanishi, o'zgarishi hamda ma'no qirralarini faqat til nuqtayi nazaridan yondashib tadqiq qilish yetarli bo'lmaydi. Mana shunday lug'aviy hodisalardan biri – onomastik material ya'ni atoqli otlardir. Shu sababli ham tilning atoqli otlar tizimi bilan nafaqat tilshunoslik, balki tarix, etnografiya, etnopsixologiya, etnomadaniyat, sotsial psixologiya, folklorshunoslik, mifologiya, semiotika kabi sohalar ham qiziqadi va undan o'zlari uchun kerakli materialni axtaradi. Mana shunday sohalar orasida **atoqli otlarni sotsial nuqtayi nazardan o'rganishda** sotsiolingvistika alohida o'rin tutadi.

Hozirda sotsiolingvistika, lingvosotsiologiya va lingvistik sotsiologiya deb yuritilayotgan soha: o'z vaqtida **til sotsiologiyasi** (sotsialnaya yazika), **sotsiologik lingvistika** (sotsialnaya lingvistika), **sotsial tilshunoslik** (sotsialogicheskoe yaziko

znaniya), *lingvistik sotsiologiya, lingvosotsiologiya, sotsialnaya lingvistika* kabi nomlanib kelgan.³

Sotsiolingvistik tadqiqotlar orasida atoqli otlar, jumladan, antroponimlarni o'rganishga oid maxsus ishlar nihoyatda kam. Buning sababi bizning nazarimizda, sotsiolingvistik tadqiq metodining tilning barcha sohalariga bir xilda tatbiq etilmayotganidir. Shunga qaramasdan, til onomastik tizimining jamiyat rivoji bilan bog'liq muammolari "sotsiolingvistika" termini ostida bo'lmasa-da, nomshunoslar tomonidan doim o'rganib kelingan, chunki onomastik tadqiqotlarni nolingvistik omillarni ham yetarli hisobga olmasdan amalga oshirish mumkin emas.

V. Bondaletovning fikricha, sotsial lingvistika tilshunoslikning bir yo'nalishi bo'lib, u til kelib chiqishining ijtimoiy asoslarini, tilning jamiyatga ta'sirini tadqiq qilishi kerak⁴.

Taniqli rus nomshunosi V.A.Nikonov o'z vaqtida antroponimlarni lisoniy yo'sinda o'rganishning tilshunoslik hal qilishi lozim bo'lgan 45 dan ortiq muammolari haqida gapirar ekan, ularni qoniqarli hal qilish quyidagi masalalarni tadqiq etish bilan mustahkam bog'liqligini takidlagan edi: "1) ismning o'z egasiga aloqadorligi; 2) xalqning nom tanlash va bolaga berish an'anasi bilan bog'liq ismlar; 3) rasmiy va norasmiy qo'llanishdagi ismlar; 4) shaxs ismining ma'lum muddatdan o'tgach shaxsning yoshiga moslab o'zgartirilishi; 5) kishilar o'rtasidagi sotsial munosabat tiplari va ularning bolani nomlash usullari va shakliga ta'siri (koyne); 6) ismlarda tabu va evfemizm ko'rinishlari"⁵.

O'tgan asrning ikkinchi yarmida onomastika (jumladan, antroponimiya bo'yicha olib borilgan tadqiqotlarda ta'kidlanishicha, "onomastika leksikaning shunday sohasiki, u jamiyatning ehtiyoji bilan, ijtimoiy-tarixiy va ijtimoiy-madaniy omillar bilan mustahkam bog'liq. Atoqli otlarning xususiyatlari ularning ijtimoiy- kommunikativ vazifalari bilan aloqadordir. Bunda ularning eng asosiy vazifasi nominativ (nomlash), indentifikasiya (yakkalash, alohidalash) hamda

³ Бондалетов Б.Д. Сотсиальная лингвистика. М., 1987. С.10.

⁴ O'sha yerda. 3-10-betlar.

⁵ Никонов В. А. Предисловие// Антропонимика. М., 1970. С.10.

ajratish, farqlash (differensiatsiya) vazifasidir”⁶. Ammo o’sha ishda qayd etilshicha, atoqli otlarning axborot tashuvchilik, emosional-ekspressiv, badiiy-estetik, etikaviy kabi qo’shimcha vazifalari ham bor. Xullas, ism “nomlaydi, ajratadi, farqlaydi”⁷.

Ba’zi mualliflarning takidlashicha, antroponimikaga bag’ishlangan ko’pgina ishlarda ismlar tarixiy va ijtimoiy-madaniy (sotsiakulturniy) axborotni o’zida jamlab tashiydigan vosita sifatda baholanadi. Mana shu ma’noda ismlarga ijtimoiy bilimlarni kodlovchi belgilar na’munasi, ijtimoiy-madaniy, vaziyatbop matn (kontekst) deb qaraladi⁸.

Atoqli otlar, jumladan, antroponimlarning ijtimoiy hodisaligi onomastikaning nolingvistik (ekstralingvistik) tomonlari bilan bog’lanadi va bunga quyidagilarni kiritishadi: “etnik jarayonlar, sotsial tarix, iqtisod, tilning etnomadaniy xususiyatlari, tillar va ushbu tillarda gaplashuvchilarning o’zaro munosabati va ta’siri, ikki tillilik, normaning tilga ta’siri, standartizatsiya va b”⁹. Ushbu tahlillar natijasida shunday xulosaga kelinadi: “Antroponimlar (atoqli otlar) ning turli tiplari, ijtimoiy tarixning oynasidir”¹⁰.

Atoqli otlarni tilshunoslik va sotsiolingvistik yo’nalishda o’rganish o’zaro qanday xususiyatlarga ega bo’ladi, deyilgan savolning tug’ilishi tabiiydir. Ular quyidagilar:

1. Onomastikaning tadqiq obyekti til leksikasining ma’lum qismi hisoblanadigan atoqli otlar tizimidir. Sotsiolingvistikaning obyekti esa tilning barcha tizimi tuzilishidir (leksema, grammatika, fonetika).
2. Onomastika tildagi barcha atoqli otlarni (uning yuzaga kelishi va tarqalish xususiyatidan qat’i nazar), sotsiolingvistika esa atoqli otlarda iz qoldiruvchi barcha sinfiy xususiyatlarni (tabaqaviy, guruhiy va b.) tadqiq qiladi.

⁶ Сотсиолингвистический аспект имени собственного (обзор). М., С.5.

⁷ O’sha yerda. 13-bet.

⁸ O’sha yerda. 7-bet.

⁹ O’sha yerda. 6-bet.

¹⁰ O’sha yerda.

Onomastika atoqli otlarning o'ziga xos xususiyatlarini o'rganish bilan shug'ullanadi, ularning tabiati nomlanayotgan obyektga mosligi, motivativ asosi, paydo bo'lishi, ma'naviy-struktural, funksional-uslubiy nuqtayi nazardan apellyativ bilan munosabati va b. Sotsiolingvistika esa onomastik materiallarga o'zining asosiy maqsadi– antroponimlar, toponimlar, teonimlar, astronimlarning xalq hayotining ijtimoiy-tarixiy talablariga mos tushishi nuqtayi nazaridan yondashadi.¹¹

Demak, hozirda tilshunoslikda sotsiolingvistika (ijtimoiy tilshunoslik) yo'nalishi mavjud va u tilning ijtimoiy xususiyatlari, vazifalarini o'rganish bilan shug'ullanadi. Ammo sotsiolingvistika onomastik materialga yondashishda tilshunoslik va onomastika sohasidan farqli tomonlarga ega. Bu hol "sotsial onomastika" (ijtimoiy onomastika) yo'nalishining ilmiy maqsadi, vazifalarida, tadqiq metodlarida yorqin ko'rinadi. Lekin bu masalada ba'zi mualliflarning fikrlarida mushtaraklik va farq sezilib turadi. Masalan, B.D. Bondaletov "Onomastika va sotsiolingvistika" maqolasida sotsiolingvistikaning onomastikani tadqiq qilish bilan bog'liq muammolariga quyidagilarni kiritadi:

Onomastik leksikaning umuman va alohida ko'rinishlarini (antroponimlar, toponimlar va b.) ularning bajaradigan vazifalari, buning xarakterini ularning lisoniy va ijtimoiy omillarini hisobga olganini belgilaydi.

Antroponimlar, toponimiya va boshqa onomastik guruhlarning va ijtimoiy-tarixiy davrdagi taraqqiyot xususiyatlarini o'rganadi.

Alohida xalqlar (elatlar) hamda davlatga xos madaniy-manaviy, diniy va etnografik an'analarning ifodalanishini o'rganadi.

Turli tillar materiali asosida (jumladan, sotsial dialektlar ham) interlingvistik, shuningdek, ekstralingvistik ko'rsatkichlarni, dalillarni hisobga olgan holda qiyosiy-tipologik tadqiq qiladi¹².

¹¹ Бондолетов Б. Д. Ономастика и сотиолингвистика //антропонимика. М., 1970. С. 17-18.

¹² Бондалетов В. Д. Ономастика и сотиолингвистика. С. 23.

Umuman, antroponimiya (ism, ota ism, familiya, laqab va boshqalar)ni tadqiq qilish kishilarning jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlari bilan mustahkam bog'liq bo'lgani uchun boy material beradi.

Antroponimiya bo'yicha XX asrning ikkinchi yarmida yozilgan ish mualliflari fikricha, onomasiologiya – sotsiologik lingvistika sohasining vazifalariga quyidagilar kiradi: 1) turli xalqlar antroponimlari sistemasining shakllanishi va rivojlanish jarayonlarini nazariy va metodologik o'rganish; 2) antroponomik tizimning sistema sifatidagi kompleks tadqiqi; 3) ismlarni sotsial-tarixiy kategoriya sifatida tadqiq qilish; 4) shaxs nomlarining paydo bo'lishi, yashashi va iste'moldan chiqishining sotsial-tarixiy, sotsial-madaniy, etnolingvistik shartlanganligini tekshirish; 5) shaxs ismlarini muloqot (nutqiy) vaziyatda, ya'ni ikki tillilik va qo'shtillilik, lisoniy va madaniy, aloqalar sharoitida tavsiflash; 6) antroponimlarning sotsial jihatdan baholash va ekspressiv-emotsional funksiyasini, sotsial-madaniy kontekstdagi (badiiy adabiyotda, matbuotda, og'zaki muloqatda) holatini belgilash; 7) antroponimlarni lingvostatistik va stratifikatsion tahlil qilish; 8) xalqlar antroponomik sistemasidagi internatsional va milliy unsurlarning o'zaro ta'sirini o'rganish; 9) shaxsiy nomlarning sotsialistik jamiyatdagi vazifasiga ijtimoiy xarakteristika berish”¹³

Ba'zi nomshunoslar fikricha, ismlar tilda avvaldan mavjud bo'lgan so'zlardan yasalar edi, bu o'z navbatida miqdoran ko'p apellyativni talab qiladi. Shu sababli “Tadqiqotchining vazifalaridan biri tildagi antroponimlashuvga moyil bo'lgan lug'aviy asoslarni belgilashdan iboratdir. Bunda onomastik areallarni hisobga olish lozim. Bu, o'z navbatida, ismlarni qiyosiy-tipologik tadqiq qilishga imkon beradi”¹⁴.

Antroponimlarni sotsiolingvistik tadqiq qilish masalasiga bag'ishlangan ba'zi ishlarda ismlar semantikasini o'rganish muhim deb qaraladi. Chunki ismlar ma'nosi o'ziga xos bo'lib, “... Atoqli otlarga yaqin (ближащее) formal ma'no va keyinchalik yuzaga kelgan (ensiklopedik) ma'no bo'lib, mana shu ma'no jamiyat

¹³ Сотсиолингвистический аспект имени собственного. С. 10.

¹⁴ O'sha yerda. 7-bet.

a'zosi bo'lgan shaxs haqida barcha kompleks bilimlarni ifoda qiladi. Ismning bu ma'nosi faqat nutqiy vaziyatda, u yoki bu jamoa doirasida, ya'ni sotsial kontekstda namoyon bo'ladi"¹⁵

Demak, ismlar ma'nosi keng ma'no – ensiklopedik ma'nodir. T. Nafasov va Sh. Nafasovlar “Atoqli otlar oddiy so'zlarga nisbatan qo'shimcha axborot berish imkoniyatiga ega, deganlarida antroponimlar ma'nosining mana shu tomonlarini hisobga olgan bo'lishlari kerak”¹⁶. Shunday qilib, har qanday tilning antroponimiya tizimi etnik, tarixiy, madaniy, psixologik va mafkuraviy omillar bilan bog'liq. Ammo turli davrlarda o'sha davr talabi bilan ismlarda yuz beradigan o'zgarishlarda ham antroponimiyaga xos ikki umumiy xususiyat saqlanib qoladi: 1) turg'unlik va yakkalik (единичность); 2) o'zgaruvchanlik va takrorlanish (takror uchrash)¹⁷.

Demak, ijtimoiy tilshunoslik sotsiologiyaning tarkibiy qismi bo'lib, sotsiolingvistik muammolar tilshunoslik kursida muhim o'rin egallaydi va u hozirgi davr tilshunosligida **lisoniy fan** bo'lib, sotsiolingvistika deb yuritiladi. Sotsiolingvistika uchun onomastik tizimga tatbiqan **onomastik sotsiologiya** tushunchasi va tarminini qabul qilish mumkin.

Sotsiolingvistika tilshunoslikka daxldor bilim tarmog'i bo'lib, o'zbek tilshunosligida o'z o'rnini topmoqda. Tilning ijtimoiy holati, tilning paydo bo'lishi, til va jamiyat, ikkitillilik va ko'ptillilik, tillarning o'zaro ta'siri, ism va toponimlarning yuzaga kelishi, bunda jamiyatning o'rnini, ijtimoiy muhitning ta'siri, ism va toponimlarni motivativ tasniflash ushbu yo'nalishning dolzarb vazifalaridan biridir. Ismlar ma'nosini ochishda ekstralingvistik omillarning o'rnini haqida gap ketganda ism etnolingvistik jihatdan ham tavsiflanadi.

Endilikda etnolingvistika oliy o'quv yurtlarida maxsus fan sifatida o'qitilmoqda. Ushbu masalaga doir ba'zi qo'llanmalar ham nashr etilmoqda.

¹⁵ O'sha yerda. 12-bet.

¹⁶ Nafasov T. Nafasov Sh. Atoqli otlarga xos umumiy xususiyatlar // Joy nomlari- xalq tili va ma'naviyatining nodir me'rosi. Navoiy, 1998. 50-bet.

¹⁷ Сотсиолингвистический аспект имена собственности. С. 14.

Umuman, sotsiolingvistik yoki lingvosotsiologik tahlilni lingvistik tahlildan farqlanuvchi, ammo u bilan bog'liq holda amalga oshiriluvchi tahlil usuli deb bilish lozim bo'ladi.

Atoqli otlarning tiplarini, ular bajaruvchi nominativ vazifalarni, nomlarning ma'no va etimologiyasini, lug'aviy qatlamlarini, onomastik materialni tasniflashni, ba'zi ism va toponimlarning yaratilishi uchun asos bo'lgan omillarni ularga ijtimoiy nuqtayi nazardan yondoshmasdan turib hal etish qiyin. Bularning barchasi tilning ijodkori jamiyat (insonlar) ekanligi, til jamiyat tafakkuri ifodasi va muloqot quroli ekanligi, o'z navbatida, jamiyatni tilsiz, muloqot qurolisiz tasavvur qilish mumkin emasligi tufaylidir. Masalaning boshqa bir tomoni ham bo'lib, til jamiyatning tarixiy, iqtisodiy, madaniy-ma'naviy, etnomadaniy tushuncha va tajribalarini o'zida ifoda etuvchi hamda o'z lisoniy zaxirasida jamg'arib, asrlardan asrlarga, avlodlardan avlodlarga olib o'tuvchi mislsiz vosita ekanligida hamdir. Mana shu ma'noda til jamiyat uchun o'tmishga oid ilmiy, badiiy bilimlarni, tajribalarni, mushohadalarni o'zida mustahkam konservatsiya qilib, ular haqida kelgusi avlod uchun bebaho axborat tashuvchi misilsiz vositadir. Shu sababli tilning o'zi betakror mo'jizadir va uni xalqning ulug' madaniy-ma'naviy boyligi deb baholanadi. Sotsiolingvistik tadqiqotlar tilning yuqorida qayd qilingan xususiyatlarini o'rganishda va uni jamiyat uchun xizmat qildirishda favqulodda qimmatga egadir.

Sotsiolingvistik tadqiq usulini antroponimiyani o'rganishga tatbiq etilganda, bizning nazarimizda, quyidagi muammolarni ko'zda tutish lozim bo'ladi.

- o'zbek ismlarining paydo bo'lishi va tarixiy ildizlari;
- o'zbek ismlari fondining turli tarixiy davrlardagi holati va rivojlanish tamoyillari;
- ismlar ijod qilish va bolga ism berishda qadimdan amal qilib kelingan totemistik, animistic va boshqa xil qarashlarning o'rni;
- bolaga ism berishda hisobga olinadigan: a) tabiiy va mahalliy sharoitning roli; b) ism tanlashda xalqning iqtisodiy va turmush sharoitining o'rni; v) ismlarning yaratilishida konkret tarixiy sharoitning, xalq madaniy-

ma'naviy qarashlarining o'rni; g) ismlarda xalqning etnik udumlari an'alarining o'rni;

- ismlar fondining o'zgarishi va rivojida diniy-mifologik tasavvur va qarashlarning ro'li;
- ismlarning yaratilishi va rivojida davlat siyosati, mafkuraviy qarashlarning ta'siri;
- ismlarda xalqning etik, estetik, madaniy-ma'naviy, ilmiy-ma'rifiy qarashlarining ifodalanishi;
- ism va shaxs, nomlarda kishilarning (nominatorlarning) istak-xohishlari, orzularining aks etishi;
- ism va ism egasi orasidagi aloqa, "bog'liqlik" yoki tasodifiy mos tushuvchi holatlar, ba'zi stixiyali yuzaga kelgan ism shakllari;
- turli davrlarda muayyan ismlar guruhiga moyillik (moda) ning yuzaga kelishi, buning ijtimoiy sabab va asoslari;
- ismlarni etik va estetik, madaniy-ma'rifiy, siyosiy jihatdan baholash muammosi: chiroyli ism, xunuk ism, xosiyatli ism, xosiyatsiz ism, bolaga og'irlik qiladigan ism, muqaddas ism va b.
- ism vazifasiga o'tishga moyil bo'lgan leksema(appelyativ)lar – bunday moyillikning motivativ asoslari, sotsial omillarini aniqlash;
- ismlarning ijtimoiy-tarixiy qatlamlarini belgilash, bu qatlamlarning yuzaga kelishiga asos bo'lgan tarixiy sharoit va jarayonlarni o'rganish;
- ismning nominativ(asosiy) va ensikloprdik ma'nolarni tadqiq qilish, ushbu ma'nolarning shakllanishida sotsial sharoitning o'rnini belgilash;
- jamiyatning ismga, milliy ismlar fondiga munosabatini o'rganish:
 - a) kishilarning u yoki bu ismga ijobiy va salbiy munosabatini o'rganish;
 - b) milliy til ismlari zaxirasining miqdoran kamayishi, qashshoqlashuviga sabab bo'ladigan omillarni belgilash;
 - c) ismlarni adabiy me'yorga solish, sun'iy ravishda "adabiy lashtirish"ning salbiy oqibatlarini aniqlash;
 - d) ismlarning tilning sotsial tarmoqlaridagi erkalash-kichrayish, qisqarish variantlarini tahlil qilish, bunga sabab bo'ladigan ijtimoiy, lisoniy,

- emotsional-ekspressiv omillarni belgilash; e) ismlarni imloviy me'yorlashning ehtiyojini, bu ishning ijobiy va salbiy tomonlarini o'rganish;
- ismlarning qo'shimcha axborot tashish imkoniyatlarini, buning ijtimoiy ahamiyatini o'rganish.

Yuqorida sanalgan muammolarning tadqiq etilishi sotsiolingvistika (sotsial onomastika) sohasining antroponimiya bilan bog'liq tomonlariga ma'lum darajada oydinlik kiritadi, deb o'ylaymiz.

Biz shunday jamiyatda yashayapmizki, ijtimoiy fan sohalari ancha nisbiy xarakterga ega bo'lmoqda. Bunday fanlarga sotsiolingvistika misol bo'la oladi. U sotsiologiya va tilshunoslik fanlarining tutash joyida rivojlanayotgan sohadir.

Darhaqiqat, sotsiolingvistika tilshunoslik yo'nalishidagi fan bo'lib, ijtimoiy munosabatlarda tilning tutgan o'rnini, til taraqqiyotini va tilning funksional jihatlarini hamda jamiyat til uchun, til esa jamiyat uchun xizmat qilishini o'rganadi.

Darhaqiqat, sotsiolingvistika shakllanish, qurilish, taraqqiyot nuqtayi nazaridan tilning ijtimoiy shartlanganligi, «tilning jamiyatga, jamiyatning tilga tasirini» o'rganuvchi fan sifatida qaralmog'i lozim. Vaholanki, ijtimoiy lingvistika hayot qonuniyatlarini til faktlari asosida o'rganar ekan, uning o'ziga xos xususiyatlarini anglamoq va tushunib yetmoq lozim bo'ladi. Avvalambor, sotsiolingvistikani bir necha termin ostida nomlanishi bunga yaqqol misoldir. Jumladan, «ijtimoiy til», «ijtimoiy tilshunoslik», «tilshunoslikning ijtimoiyligi», «falsafiy tilshunoslik», «tilning ijtimoiyligi», «sotsiolingvistika» kabi atamalar bilan nomlashlar bu fanning o'ziga xos xususiyatga ega ekanligidan dalolatdir.

Sotsiolingvistika termini tilshunoslikda birinchi bor 1952 yilda amerikalik tadqiqotchi X. Karri tomonidan tatbiq etilgan bo'lib, bu termin ostidagi tushunchalar, umuman, tilshunoslikning allaqachon paydo bo'lganligini anglatish bilan birga, undan asosiy ko'zlangan maqsad tilning umumbashariy tushuncha sifatida paydo bo'lganligini e'tirof etishdir.

20-30 yillarda rus tilshunos olimlari bu fanni ikki xil nomlash asosida o`rganib keldilar. «sotsialnaya lingvistika», «sotsiolingvistika» kabi atamalar o`sha davr ruhi bilan bog`liq tarzda hosil qilingan edi. Keyinchalik, aniqrog`i 50-yillarga kelib «sotsiolingvistika» terminini hayotga tatbiq etish maqul variant deb topildi. Negaki, tilning hayot bilan, jamiyat bilan chambarchas bog`liqligi, milliy anana va milliy qadriyatlar, shuningdek, millatga xos urf-odatlarining shakllanishi va yuzaga kelishi sotsiolingvistika terminiga mosdir. Fanni shu tarzda nomlash hech qanday mushkulotni yuzaga keltirmaydi. Sabab «sotsiolingvistika» termini, qayd etib o`tilganidek, ikki soha tutash nuqtasida yuzaga kelgan, bu o`z navbatida fanlararo munosabatlarni rivojlantirishda muhim omil bo`la oladi.

Sotsiolingvistikani fan sifatida o`rganish jarayonida uning umuminsoniy hamda siyosiy xususiyatlari, jumladan, til va jamiyat, til va mafkura, til va tafakkur, til va xalq, til va yosh, til va jins, davlat institutlarida til, til taraqqiyotini rejalashtirish, shuningdek, tilning falsafiy xususiyatlarini o`rganish lozim bo`ladi. Shunday ekan, sotsiolingvistikani o`rganish va tatbiq etish jarayonida uning ijtimoiy-lisoniy omil sifatida hayot va jamiyatda tutgan o`rni baholanadi. Shu orqali sotsiolingvistika va umumiy fanlar nazariyalari haqida ma'lumotga ega bo`lamiz. Ayniqsa, ko`pgina tilshunos olimlar nazdida «sotsiolingvistika»ni falsafiy tilshunoslik deb qarashlar ham bu fanni boshqa fanlar bilan uzviy aloqadorligini anglatadi. Holbuki, ko`pgina tilshunos olimlar «sotsiolingvistika»ni o`rganish jarayonida turli xil falsafiy mushohadalar yuritishdi. Ularning ayrimlari materialistik nuqtayi nazardan yondashgan bo`lsalar, ba`zilari esa idealistik nuqtayi nazardan qarab keldilar. Biz esa ijtimoiy tilshunoslik masalalarini to`g`ri baholash va aniqlashni hayot va jamiyat taraqqiyoti bilan uzviy bog`lab o`rganamiz. Jumladan, O.Axmanovanning «Lingvistik terminlar lug`ati» yoki A. Hojievning «Lingvistik terminlarning qisqacha izohli lug`ati» ni ko`zdan kechirish orqali ham bu masalaga oydinlik kiritish mumkin. Xususan, O.Axmanova lug`atida «sotsialingvistika» termini «ijtimoiy lingvistika» «tilshunoslikning ijtimoiyligi» deb atalishi asosida quydagicha ma'no kelib chiqadi. Birinchidan, tilning umuminsoniy munosabatlardagi o`rni, til va jamiyat o`rtasidagi xususiyatlarning

o`zaro bog`liqligini o`rganish tatbiq etilsa, ikkinchidan, tilshunoslikning ijtimoiy munosabatlardagi turli xil vazifaviy xususiyati va aloqadorligi (masalan, ijtimoiy dialekt, hududiy dialektlar, argo va jargonlar) va hokazolar til va jamiyat o`rtasidagi mushtaraklikni bog`lashga xizmat qilishi ta'kidlanadi. Ikkinchi vaziyatda ijtimoiy dialektlarning ijtimoiy til mohiyatlarini belgilovchi xususiyatlari faqat ijtimoiy dialekt sifatida emas, balki professional nutq, koynе va h.k tarzda tushuniladi. Ko`rinadiki, sotsiolingvistikaning asosiy muammosi «til va jamiyat» o`rtasidagi munosabatlarni o`rganishdan iboratdir. Shunday ekan, til va jamiyat munosabatlari o`rtasidagi bu bog`liqlik til va jamiyat taraqqiyotining uzviy ko`rinishidir.

Sotsiolingvistika predmetini akademik V. Jirmunskiy tor ma'noda ta'kidlab, sotsiolingvistika o`zaro ikki tomonlama bog`liq munosabatlar asosida tutash topgan,- degan xulosaga keladi, ya'ni:

1. Ijtimoiy til differensiatsiyasi sinfiy jamiyat uchun xizmat qilib, uning tarixiy qatlamlarini o`rganadi. Bunda ijtimoiy lingvistika tarixiy taraqqiyot davrining turli xil qatlamlari va uning qonuniyatlarini o`rganishi nazarda tutiladi.

2. Tilning ijtimoiy qatlamlari taraqqiyotini, uning o`tmish tarixini belgilovchi omil sifatida xizmat qiladi, deydi. Shuningdek, V. Jirmunskiy «sotsiolingvistika»ni sinxron va diaxron tarzda o`rganishni ma'qul, deb biladi.

Professor B. Golovin esa «sotsiolingvistika» fanini tor va keng ma'noda talqin etishni maqsadga muvofiq deb biladi. Chunki sotsiolingvistika funksional (vazifaviy) ma'no kasb etib, u til qurilishi taraqqiyotiga xizmat qilishini ta'kidlaydi va tilning vazifaviy xususiyatlari bilan bog`liq, - degan xulosaga keladi. Ayni paytda, B.Golovin sotsiolingvistika terminining 7 xil xususiyatlarini sanab o`tadi:

a) differensiyaga xoslanishi (hududiy dialektlar, qatlamlar);

b) tilning umuminsoniy xususiyatlari (unda yozma va og`zaki til qonuniyatlari nazarda tutiladi);

v) tilning nutq jarayonidagi holati (dialogik, monologik nutq ko`rinishlari);

g) ijtimoiy jamiyatning kollektiv bilan bog'liqligi tilning funksional (vazifaviy) belgilari;

d) ijtimoiy guruhlar, ijtimoiy til qatlamlari majmuasi (professional nutq, xalq maqollari variantlari);

e) badiiy tilning tur va xususiyatlari (epik, drammatik, lirik janrlar);

j) avtor so'zi va uning xarakterli belgilari (xususiylilik, variant, variantlilik)

B.Golovin nazariyasiga ko'ra, sotsiolingvistikani birlashtiruvchi ma'nodagi sohalar bo'lib, tilning umumjamiyat taraqqiyotidagi xizmatini, til a'zolari va uning jamiyat uchun xizmat qilishini alohida ta'kidlaydi. Jumladan, ijtimoiy til hammaga baravar, ya'ni ishchi, dehqon, xizmatchi, ziyolilarga ham xizmat qiladi. Golovindan keyin taniqli tilshunos olim F. Filin ham "Til jamiyat uchun xizmat qiluvchi ijtimoiy hodisadir", - deb ta'kidlaydi. Uning qarashlaricha, sotsiolingvistikani tushunish uchun uch xil masalani mukammal bilish lozim:

a) ijtimoiy munosabatlarda til faktorlariga asoslanish, shu jumladan, til qurilishi masalasi. Bunda, shubhasiz, tilning ijtimoiy hodisa sifatida jamiyat hayotida tutgan o'rnini, ayni zamonda uning ijtimoiy faktor sifatida e'tirof etilishi hisobga olinishi lozim;

b) tilning umum vazifaviy belgilarini tushunish;

v) tilning jamiyat taraqqiyotidagi o'rnini, sotsiolingvistika va uni hayotga tatbiq etishda muhim omil sanaladi. Bunda, shubhasiz umumtil qonuniyatlarini belgilashda ijtimoiy til faktorlari muhim ahamiyat kasb etadi. Bundan tashqari, G.Stepanov, Yu. Desheriev, N.Nikolskiy, A.Shveytsar kabi olimlar ham sotsiolingvistika muammolari va uning ma'no mundariyasi xususida ko'pgina mulohazalar yuritishgan. Xususan, Yu. Desheriev sotsiolingvistikaning ma'no mundariyasi va uni tekshirish jarayonida ikki tomonlama yondashmoq kerak deydi:

1) til va jamiyat o'rtasidagi munosabatlarni yaxshi bilish. Til jamiyatga, jamiyat tilga qanday ta'sir qiladi, ya'ni til jamiyat a'zolari uchun bitmas-tuganmas ijtimoiy manba ekanligi, ayni paytda jamiyat a'zolari til va uning taraqqiyoti uchun qayg'urishi lozimligi ko'rsatilib o'tiladi. Bu o'z-o'zidan til va jamiyat o'rtasidagi munosabatlarni yaxshi bilish va his etishni taqozo qiladi;

2) ijtimoiy tilshunoslik ijtimoiy faktorlarni o`rganuvchi, nutqiy jarayonni tekshiruvchi hamda shu faktorlarni tahlil etish jarayonida til qurilishi taraqqiyotiga ta'sir qiluvchi mustaqil fan ekanligini alohida uqtirib o`tadi. Shu fikrlardan kelib chiqqan holda, sotsiolingvistikani o`rganish asosida quyidagi maqsad va vazifalar yotadi:

1. Tilning ijtimoiy vazifasi – uning shakllanish jihatidan aniq tarixiy me'yorlariga bog`liq ekanligi. Aytaylik, o`zbek tili shakllanish nuqtayi nazaridan aniq faktorlarga tayanadi va ijtimoiy muhit tarzi bilan bog`liq holda rivojlanib keldi;

2. Tilning hayotiy ko`rinishlari, uning adabiy va noadabiy shakllari, jonli so`zlashuv, hududiy va ijtimoiy ko`rinishlari;

3. Ijtimoiy, funksional (vazifaviy) va hududiy jihatdan asosiy bo`linishlari tilning ijtimoiy-uslubiy bo`linishiga ijtimoiy muhit, nutq shakllarining ta'sirini his etish lozim;

4. Tilning ijtimoiy kommunikativ (aloqa-aralashuv) tizimi, uning qismlari, ikki tillilik (bilingvizm) va diglossiya (bir tilning ikki shaklidan foydalanishi);

5. Til taraqqiyotining ijtimoiy shakllanganligi: urug` - qabila, xalq, millat tillari, millatlararo tillar, oraliq (vositachi) tillar, koyne (umum til) kabilar.

6. Adabiy tilning vazifasini aniqlash va uning belgilari. Tilda norma, tilning uslubiy bo`linishining ekstralingvistik ya'ni, tildan tashqari mavjud ijtimoiy birliklar majmuasi (nutq mazmuni va yo`nalishi: adresant va adresat) hodisalari;

7. So`zlovchining ijtimoiy belgilariga (yoshiga, bilimiga, vazifasiga) ko`ra nutqining ko`p variantlilik ega ekanligini tushunib yetish;

8. Tillarni sotsiolingvistik tasnif qilish, umumjahon va kelajak tillari va ularning taraqqiyot qonuniyatlarini to`g`ri belgilash va baholash;

9. Xalqaro vosita tillar muammosi. Esperanto va boshqa sun'iy tillar, ularning qo`llanilish doirasi. Interlingvistika vazifalari borasida ham ma'lum to`xtamga kelish;

10. Inson va til. Til ichki qurilishi taraqqiyotida inson tilining ta'siri, yozuv, orfoepiya va punktuatsiyaga ilmiy ishlov berish masalasida ham aniq bir fikrga kelish;

11. Ijtimoiy dialektologiyani sotsiolingvistikaning bir qismi sifatida o'rganish, ya'ni dialektal qatlam va uning turli xil ko'rinishlarini hayotga tatbiq etish orqali dialektologik muammolarni hal qilish;

12. Sotsiolingvistika qurilish metod (uslub)lariga material yig'ish va uni ishlash usullari ;

13. Hozirgi sotsiolingvistika qurilishi. Sinxron va diaxron sotsiolingvistika muammolarini to'g'ri hal etish;

14. Sotsiolingvistika tarixi kabi masalalar ijtimoiy tilshunoslik predmetini belgilovchi maqsad va vazifalardir.

Shunday qilib, sotsiolingvistika haqida fikr yuritish qaysidir ma'noda til va jamiyat bilan bog'liq tushunchalarni nazariy jihatdan tekshirish va o'rganishni taqozo etadi. Bunda, shubhasiz, til va jamiyat o'rtasidagi turli xil munosabatlar uzviy mushtaraklik kasb etadi. Xulosa shuki, til va jamiyat o'rtasidagi ana shu aloqadorlik sotsiolingvistikani yaxlit tizimga ega bo'lgan fan sifatidagi imkoniyatlarini belgilaydi.

2.2. Ijtimoiy qatlamlarning til xususiyatlari va ularning badiiy asarlarda berilishi.

Biz jinoyatchi deb biladigan olamning o'ziga yarasha odatlari, an'analari mavjud. Shuningdek, ularning o'ziga yarasha martaba-yu "unvonlari", o'zlariga xos so'zlari ham bor. O'zbek fantastik adabiyoti taraqqiyotiga sezilarli ta'sir ko'rsatayotgan ijodkorlardan biri Tohir Malik asarlarida badiiy til bobida o'ziga xos so'z san'atkoridir. Yozuvchining asarlarida o'ziga xos va o'ziga mos ravishda qo'llangan argo va jargon so'zlar o'z o'rnida ifodalangan. Ijodkor bu so'zlarni

qo'llash orqali hissiy ta'sirchanlikni oshirish va ma'lum bir guruh, qatlam yoki tabaqa vakillarining jonli so'zlashuvini tasvirlab bergan.

Ma'lumki, argo va jargon so'zlar fransuzcha so'zdan olingan bo'lib, biror ijtimoiy guruhning o'ziga xos, boshqalar tushunmaydigan yasama tiliga aytiladi¹.

Argo va jargonlar ma'no va shakl jihatidan bir-biriga yaqin so'zlar bo'lsa ham ijtimoiy guruhlanish jihatidan bir-biridan farq qiladi.

Argo va jargonlar yordamida kishilarning qaysi ijtimoiy guruh vakillari ekanligini anglash mumkin. Argo va jargonlar boshqa leksik birliklar bilan doimo o'zaro aloqada bo'ladi. Ayrim badiiy argo va jargonlar personaj tilidan qo'llanadi. Bu asarning tabiiy chiqishiga imkon yaratadi.

Argo va jargon so'zlarni qo'llovchi kishilar guruhi turli-tuman bo'lgani uchun argo va jargon so'zlar ham kelib chiqish xarakteriga ko'ra turlicha bo'ladi. Masalan, o'g'rilar argosi, savdogarlar argosi, qimorbozlar argosi, kisovurlar argosi.

Umumxalq tilidan farq qilib, biror ijtimoiy guruh o'rtasida yaratilgan va ularning talablarini ifodalovchi maxsus so'z va iboralar jargonlar hisoblanadi.

Jargonlarning eng xarakterli belgisi o'zaro so'zlashuvni boshqalardan maxfiy sir tutishdir. Shunga ko'ra jargonlarning yaratilish yo'llari ham ko'pincha tilning so'z yasash sistemasiga to'g'ri kelmaydi. Ular o'ziga xos sun'iy, shartli so'zlardir.

Jargonlar ko'pincha tildagi so'zlarning tovush tomonining o'ziga yarasha, so'zlarni buzib qo'llash, boshqa tillardan so'z o'zlashtirish va tildagi mavjud so'zlarga ma'no berish yo'li bilan hosil qilinadi.

Ijtimoiy argo va jargonlarni o'zbek tilida abdal tili deb ham yuritilgan. Qadimda maddohlar va qalandarlar o'z niyatini boshqalardan yashirish maqsadida o'zlari uchungina tushunarli bo'lgan abdal tilidan foydalanganlar.

Bundan tashqari bu ijtimoiy jargonlar salbiy ahamiyat kasb etganligi uchun argo deb ham yuritiladi. Masalan, loy, soqqa, kusok, qurug'i (pul); tuz (aqlli) kabi qimorboz o'g'rilar argosi. *Vey bratan, man o'zim borganman. Soqqa yo'g'idi,*

¹ O'zbek tilining izohli lug'ati. Moskva. Русский язык 1981.

qarzga bergan. (I k, B. 45) *Sen bu o'yinda ikkita xatoga yo'l qo'yding. Birinchisi – akademikni “tuz” deb bilding* (I k, B. 206)

Argo va jargonlar shevaga xos so'zlarni qo'llash va laqab qo'yish bilan ham bog'liq bo'ladi. Badiiy asarda qahramonlar portretining ayrim qirralarini ochib berishga muvaffaq bo'ladi. Masalan, *Juda go'zal! Hosil – laycha. Asadbek – o'q ilon! Qardosh, sen ayt-chi, agar laycha akkillab g'ashni keltirsa, o'q ilon chaqib o'ldirishi mumkinmi?* (III k. B. 220)

Misollarga nazar tashlaydigan bo'lsak, Asadbek va Hosil boyvachchaning laqablaridan, ularning kuch-qudrati, qanday odam ekanligini bilib olishimiz mumkin. *Kesak polvon xonaga kirib, Qilich bilan so'rashib olgunicha 1-2 daqiqa vaqt o'tdi.* (I k. B. 65) Asadbekning o'ng qo'l a'yonlaridan bo'lgan Haydarga bu laqab qaddi-bastiga qarab emas, balki o'g'irlik qilib yurganida, pul bor deb o'ylab, belbog'idan kesak chiqqani uchun berilgan. Yana xarakter xususiyatida ham muhim masalalarga kesak ushatishday yengil qarashi kuzatiladi.

Bo'tqa xo'jayin tikilib turgan nuqtaga qarab joni chiqib ketgudek bo'ldi. (I k. B. 68) Bo'tqa Asadbekka qarashli videobar egasi Kenjaning laqabi. Bu nom uning o'ta gavdaliligi uchun berilgan.

Bilasanmi, ustozim kim? – Akademik! Xongrey shunday deb ko'rsatkich barmog'ini faxr bilan havolatdi. (III k. B. 251) Asardagi “Akademik” laqabini Zelixonga Xongrey bergan. Bunga sabab – u puxta o'ylab olib, so'ng ishga kirishar edi. Shuning uchun ham asardagi eng kuchli to'daboshi Xongrey uni o'ziga ustoz deb biladi.

Akulaning “Kalamush” laqabli shogirdi g'alati tomosha ko'rsatish bilan band edi (Talvasa. 133-bet)

Atayin “Axlat edi”, dedi. Uning yoshlikdagi laqabi “Axlat” ekani faqat Akmalga ma'lum (Talvasa. 164-bet)

O'zini “Bo'ron” deb tanishtirgan bu odamning ko'nglida shumlik yotganini sezganday bo'ldi-yu, biroq sir boy bermadi. (Talvasa. 11-bet)

O'g'rilar olamida “Akula” laqabi bilan tanilgan Toshqul o'ziga boshpanani aynan shu Suvarak mahalladan topgan edi. (Talvasa. 32-bet)

U mezbonga qaradi: - “Akulaman”, deb kerilib yurarding. It baliqlar oldidagi obro’ying shumi? (Talvasa. 8-bet)

Bu bolaga yaxshi niyat bilan “Graf” deb o’zing nom berganmiding? Ana endi Graf ham farosatini, ham mardligini ko’rsatadigan vaqt kelibdi. (Talvasa. 8-bet)

Haydarning Mahmudga nutqidan:

“Bo’pti, men fas!” (taslim bo’ldim ma’nosida)

“O’zi chaqa olmaydi, ammo odamni seskantiradi, “suvilon” deb atasharkan uni” (II k. B. 194)

Zelxon: - *Qaysi Fedya?*

Ahad: - *Istansaning orqasida turardi. Laqabi “bo’ri” (I k. B. 295)*

Zelixon: - *Kim bilan ishlayapsan?*

Nadya: - *Suvarak bilan. (I k. B. 299)*

Argo va jargonlarning biror guruh yoki tabaqa doirasida paydo bo’lishiga qarab ikkiga ajratish mumkin:

a) professional argo-jargonlar;

b) ijtimoiy argo-jargonlar.

Professional argo va jargonlarga biror kasb-hunar kishilari orasida ishlatiladigan maxsus so’z iboralar kiradi. Bu xil argo va jargonlarning paydo bo’lishi, odatda, ishlab chiqarish ixtisosi, mehnatning umumiyliigi va ba’zan turmush madaniyat tarzlari bilan ham bog’liq bo’ladi. Masalan: - *Ey prokuror ko’zingni och! Shuncha yil ugroda saqich chaynab yurgan ekansan-da, a? (I k. B. 47).* Bu gap “Shaytanat” asaridagi prokuror va tergovchi o’rtasidagi suhbatdan olingan bo’lib, jinoyat qidiruvini *ugro* deb qo’llashyapti. – *Avvalgi direktoriga, bitta-ikkita plotyanni berib, qolganini komissionkada sottirar ekan. (III k. B. 304).* Bu gap asardagi Kesakpolvonning qizi Monika nutqidan olingan. Monika sartaroshxonada ishlayotgani uchun shu sohaga oid so’zlar uning nutqida ishlatilgan.

Professional jargonlar ijtimoiy jargonlardan nomaqbul ifoda qilishi va ba’zan xarakterga ega bo’lishi bilan farqlanadi.

Umuman argo va jargonlarning o’ziga xos xususiyatlari quyidagicha:

1. Argo va jargonlar adabiy tilda nomi bo'lgan narsa va hodisalarning boshqacha, juda tor guruhdagi atamasidir.
2. Argo va jargonlar har doim ekspressiv stilistik bo'yoqqa ega bo'ladi.
3. Ko'p jargon so'zlar o'tkinchi, vaqtincha bo'lib, keyinroq asta-sekin yo butunlay unutilib ketadi yoki emotsional-stilistik bo'yog'i tufayli oddiy so'zlashuvga undan umumqo'llanishga, ya'ni chegaralanmagan leksikaga o'tishi mumkin.

Argo va jargonlarning qo'llanuvchi guruhlari turlicha uyushadilar.

1. Qiziqishlariga, o'rganib qolgan odatlariga qarab birlashgan guruhlariga xos jargonlar, xususan, ichuvchilar tilida: - *Oqidanmi yo qizilidanmi, xo'jayin? – O'ldirsa ham qizili o'ldirsin.* (I k. B. 53) - *Muomalaning zo'ri bizda. Chexnikidan olib qo'yibman.* (II k. B. 70 Pivaxona xo'jayini tilidan)

Yuqoridagi misollarida qizili, oqi, Chexniki deganda vino, aroq spirtli ichimliklari ko'zda tutilyapti. - *Zo'ridan bersang, yaxshiroq bo'lardi, - dedi Qamariddinga najot ko'zi bilan qarab.* (Talvasa. 114-bet. G'ayrat tilidan) “Zo'ridan” deb em ignasida tomirga qora dori yuborishni nazarda tutgan edi.

2. Yoshlariga, jinslariga ko'ra birlashgan guruhlariga xos argo va jargonlar. Buni biz talabalar orasida ham kuzatishimiz mumkin.

Bundan tashqari badiiy asarlarda ikki turdagi jargonlar uchraydi:

1. *Badiiy jargonlar* – tarixiy asarlarda davr ifodasi, ma'lum guruh nutqini individuallashtirish sifatida qo'llanadi.
2. *Zamonaviy jargonlar* – zamonaviy asarlarda ham hozirgi tilimizdagi kichik ijtimoiy guruhlariga oid so'zlar qahramonlar xarakteri, saviyasini ko'rsatish uchun qo'llaniladi. Masalan: *Bek akangiz cho'tal oladigan gadolar oilasidan emaslar.* (II k. B. 251). Misoldagi ***cho'tal*** so'zi mafiyaga – qimorbozlarga xos jargon bo'lib, “Shaytanat” asarining markaziy qahramoni Asadbekka nisbatan aytilgan. Shuningdek ayrim obrazlar jargonga xos maxfiy so'zlar bilan nomlangan. Masalan: *G'ilay hech tab tortmay uyni alg'ov-dalg'ov qilib Zelixonning xazinasini*

qidirgandi. (II k. B.358). Jalol shilimshiq Elchinning vajohatiga qarab “baribir o’ldiradi”, - deb o’yladi. (II k. B. 123).

Ayrim qahramonlar nutqini individuallashtirish uchun jargon so’zlar ishlatiladi. Bunda ko’pincha o’zbek tiliga o’zlashgan boshqa tilga xos so’zlar qo’llaniladi. Jargon so’zlar ayrim hollarda shevaga xos so’zlar bilan ham uyg’unlashadi. Albatta, badiiy asarda jargonga oid so’zlar muallif nutqidan emas, balki qahramonlar nutqidan beriladi: - *Choydan oling, bugun oddix bo’lsa, shoshib qayoqqayam borasiz. (I k. B. 69).* (Videobar egasi nutqidan)

Zelixon nutqidan:

Asadbek, malades visshiy klass! – dedi (I k. B.87)

Qimor o’ynayotgan yigit nutqidan:

Paxan o’zimizdan ekan-ku, - dedi u sheriklariga qarab

- *Juda ham otstaliysan-da, asalchik obijatsiya qilmaginu sen xuddi 19-vekning odamiga o’xshaysan (III k. B. 306)*

Ba’zi badiiy asarda jargonlar qahramonni qaysi guruh vakili ekanligidan xabar bersa, ayrimlari uning ruhiy ahvolini, xarakterini ochishga yordam beradi. Albatta jargonlar biror guruh yoki tabaqalar doirasida paydo bo’ladi. Lekin ular uzoq yashamaydilar, guruh yoki uyushgan to’dalar yo’qolishi bilanoq jargon so’zlar iste’moldan chiqadi. Ba’zilari adabiy tilga o’zlashib ketadi.

Ismoilbey nutqidan:

- *Moskovga umid bilan ketdilar-u, jonga xalovatli xabar keltira olmadilar.*

(I k. B. 348)

Misoldagi **Moskov** so’zi asli savdogarlar nutqiga xos bo’lib, ayrim hollarda adabiy tilda ham uchrab turishi mumkin.

Asosan jargonlarga oid so’zlar bir guruhning yoki tabaqaning ikki vakili o’zaro so’zlashganda ko’proq qo’llanadi. Shuning uchun ham ular sun’iy so’zlar hisoblanadi.

Jargonlarning manbai asosan so’zning shakli butunlay o’zgartirilgandan keyin qaysi tilga xosligini aniqlash qiyin bo’lgan so’zlar va sun’iy so’zlardir.

Boshqa tildan kirgan soʻzlar ham jargon soʻzlarning qaysidir maʼnoda manbai hisoblanadi. Masalan: **Mujik** – mard inson, **kozyol** – sotqin maʼnosida. Quyidagi misollarga eʼtiborimizni qaratamiz:

Diskoteka nazoratchisi tilidan:

- *Bratan, bu yerdagilar yoqmasa, zoʻrlari bor. Eng qarisi 19 da. Xursand qilsangiz, “Mama-pozza”ning telefonini beraman.* (Talvasa. 100-bet)

Talʼat tilidan:

- *Oʻtirgunimcha shunaqa diskotekaning “tomi” edim. Sizlar mendaqalarni “tank” ham deysizlar, shekilli?* (Talvasa. 167-bet)

Oʻgʻrilarga xos urf-odatlarini tan olib, ularga beminnat xizmat qilib yurgani sababli, bu olam tilida “frayer kozirnoy” deb ataluvchi martabaga yetgan Boʻron oʻsha ziyofatda xizmat qilgandi. (Talvasa. 63-bet)

Qamariddin tilidan:

- *Adang podlets odam. Sening qadringga yetmaydi.* (Talvasa. 79-bet)

Qamariddin tilidan:

- *Qani oʻsha marjani men bilan talashib koʻr-chi? Kuching-ku yetmaydi, lekin jurʼating yetadimi?*

Asror tilidan:

- *Dilfuza marjamas... kuch bilan tortib oladigan matoʻh ham emas.* (Talvasa. 81-bet)

Soli Murodov ichkariga kirdi-yu maydoncha sari yurmay toʻxtadi. Oʻz taʼbiri bilan aytganda, “qorin oʻyini” qilayotganlarni kuzatdi. (Talvasa. 99-bet)

Buni sezgan Qamariddin orqasiga oʻgirildi-da: “Tez qurilaring!” deb buyurdi. (Talvasa. 99-bet)

Akula shu betoqatligi tufayli qoʻlga tushib, qamalgan “zona” deb nomlanuvchi qamoq lagerida Boʻron panohiga olmaganida shu betoqatligi uchun oʻlib ketishi ham mumkin edi. (Talvasa. 46-bet)

Boʻron esa “chefir” atalmish achchiq choyni ikki piyolaga toʻldirib quyib, birini Akulaga uzatdi. (Talvasa. 55-bet)

Toshqul u paytlarda o'g'rilar olamining shu mazmundagi qonuni mavjudligini bilmasdi. Mahkumlar lisonida "etap" deb ataluvchi bir qamoqdan ikkinchisiga ko'chish paytida "zekvagon" deb nomlanuvchi mahkumlar vagonida bu qonunni eshitib, "Demak, to'g'ri yashayotgan ekanman", deb qo'ygan edi.
(Talvasa. 34-bet)

Askar tilidan:

- *Пощли – dedi askar*
- *Ie, qayoqqa poshli? – dedi Yigitali.*
- *Моя дом xov anavi yerda. Moya jena, detilarim ham kutib turishibdi.*

Sharif Namozovning Zohidga nutqidan:

Achinishimning sababi shuki, hali g'o'rsiz. Eplay olmasangiz, fisht. U "kelgan joyingizga qarab jo'naysiz" degan ma'noda xushtak chalib qo'ydi.

(II k. B. 195)

Chuvrindi:

Motorni ehtiyot qilish kerak.

Elchin:

- *Motor, xudo xohlasa, yelkadagi yukni manzilga olib borishga chidaydi.*

(II k. B. 176)

Xosil boyvachchaning bobosi tilidan:

- *Mentlaring kim? – dedi opoqisi tushunmay.*
- *Milisa, - deb po'ng'illadi u. (II k. B. 20)*

Shomil tilidan Xosil boyvachchaga:

- *Nimaga atrofimda pashshaxo'rda bo'lyapsan, endi qo'rqyapsanmi?*

(II k. B 21)

Asadbek nutqidan:

- *Agar marhamat qilsa ikkita yuztalikni chiqarib, ashulachining ikki yelkasiga "pagon" qilib qo'yardi. (I k. B. 39)*

Boshliq Zohidni "mening ko'richagim" deb piching qilardi. (I k. B. 42)

Ziyofat tugab, ko'chaga chiqishdi. Ana shunda jo'raboshi:

- *Hali nima devding, quruq, – deb yoqasiga yopishdi. (I k. B. 11)*

Jalil bu davrada o'z iborasi bilan aytganda "shaytonsaroyda" moziy yodgorxonasining qirilib ketayotgan pokizalik ramzi sifatida saqlanuvchi anjomi kabi asraladi. (I k. B. 31)

Hamdam va badbashara nutqidan:

- *Bratan, menga ham bir torttirsang-chi, - dedi yutinib*
- *Ma, tort, - dedi Hamdam, unga papirosni uzatib. (II k. B. 267)*

Faqat pul, demang. Otarchilar bir paytlarda pulni "Yakan" deyishardi. (II k. B. 252)

Shomil tilidan:

- *Bossning gapi bor ekan. (II k. B. 151)*

Sayfi tilidan:

- Ukam o'sha yerda o'tiribdi. Mayda-chuyda tashlab keldim. Vaqtida moylab turilmasa, qiynashadi. (II k. B. 131)

Xosil boyvachcha:

- *Nima balo qilib qo'ydi, bu g'ilay? Qattiqroq aksirvordimi?*

Elchin:

- *Shunaqa bo'libdi, jiyanimga qarab aksiribti.*

Elchinning Halimga nutqidan:

- Pul emas... agar u sizning "chorniye poyas" ekaningizni bilsa, xizmatga taklif qilishi mumkin. (II k. B. 159)

Shomil:

- *Oting nima?*
- *Xosil.*
- *Klass! Zo'r ot! Sen prosta Xosil emas, Xosil boyvachcha bo'lasan. (II k. B. 16)*

O'lmas Akromov tilidan:

- *Maydalashma!*
- *Xo'p maydalashmayman (II k. B. 77)*

Elchin tilidan:

- *Umrinning mazmuni shu edi... Ilonman, desam... chuvalchang ekanman... men ularni bo'g'ib rohat qila olmadim.* (II k. B. 80)

2.3. Murojaat shakllari va mulozamat – manzirat ifodalovchi

birliklarning sotsial xoslanishi

Azal-azaldan o'zbek xalqi o'zining mehmondo'stligi, yaqinlariga mehr-oqibatligi, xushmuomalaligi bilan alohida ajralib turadi. Kishilar yaqinlarining boshiga og'ir musibat tushganida ham, shodiyona yoki quvonchli kunlarida ham bir-birlarining ko'nglini ko'taruvchi, yupatuvchi, qutlov so'zlarini muloqot jarayonida keng qo'llaydilar. Ayni shu madaniy xususiyat adibning o'lmas asarida mahorat bilan ochib berilgan. Bunday so'zlar mulozamat-manzirat leksikasi, ya'ni, iltifot ifodalovchi nutqiy birliklar deyiladi. Mulozamat-manzirat ifodalovchi shakllar kishilar o'rtasidagi qarindoshlik, do'stlik va yaqinlik munosabatlarini mustahkamlaydi. Bunday munosabatlar fatik kommunikatsiya termini bilan yuritiladi.

Fatik kommunikatsiya termini ilk bor ingliz etnologi B.Malinovskiy tomonidan qo'llanilgan bo'lib, mulozamat (manzirat) ko'rsatish funksiyasini ifodalaydi. Bu atama lotincha "gapirish" ma'nosini bildiradi, ba'zan uning o'rnida "sotsiativ" so'zi ham ishlatiladi¹⁸.

O'zbekning kundalik hayotini mulozamat-manzirat shakllarisiz tasavvur qilish qiyin, shunday ekan, T.Malik ham o'z qissasida bu hodisani mahorat bilan tasvirlab beradi. Chunki o'zbekning nutqi bunday so'zlarsiz jo'n, rasmiy, hatto, qo'pol bo'lib qoladi. Tildagi mulozamat-manzirat shakllarni ishlatilish o'rniga ko'ra quyidagicha tasniflash mumkin:

1. So'rashish, ko'rishish va xayrlashish jarayonida ishlatiladigan mulozamat shakllari.
2. To'y-hasham, mehmondorchilik va boshqa shodiyona kunlarda ishlatiluvchi mulozamat shakllari.

¹⁸ Mo'minov S. O'zbek muloqot xulqining ijtimoiy-lisoniy xususiyatlari. Filol.fan.dokt.diss. Toshkent.- 2000, 56-b.

3. Aza-motam yoki qayg'uli vaziyatlarda ishlatiladigan mulozamat shakllari.

4. Nutqda doim iste'molda bo'lgan barcha boshqa vaziyatlardagi mulozamat-manzirat shakllari.

Mulozamat-manzirat shakllarining ifodalanishini jinslar nisbatiga ko'ra:

- a) ayollarga xos mulozamat-manzirat shakllari;
- b) erkaklarga xos mulozamat-manzirat shakllari;
- c) ayollar va erkaklar nutqida birdek qo'llanishda bo'lgan neytral mazmundagi mulozamat-manzirat shakllariga ajratamiz.

Fatik kommunikatsiya jarayonida adresant va adresatlarning jins jihatidan farqlanishi sodir bo'ladigan nutqiy vaziyatda yaqqol aks etadi. Jumladan, ayollar nutqini mulozamat-manzirat shakllarisiz tasavvur etish imkonsiz, chunki bunday so'zlar ayollar nutqining shirin, muloyim bo'lishini ta'minlaydi. Ayniqsa, o'zbek ayoli bunday so'zlarga kundalik turmush tarzida deyarli doim murojaat qilib turadi. Erkaklar nutqida esa bu holat birmuncha passiv amalga oshadi. Ammo "Shaytanat" asari qahramaonlari, aksariyat, erkak jinsiga mansub bo'lganlari uchun ham bunday qat'iy fikr aytishdan yiroqmiz, sababi, erkaklar nutqida ham mulozamat-manzirat shakllari yetarlicha o'rin tutishini ko'ramiz.

So'rashish jarayoni, avvalo, salomlashishdan boshlanadi. Ayollar va erkaklar salomlashish tarzi bir-biridan katta farq qiladi. Salomlashish turli ijtimoiy tabaqaga mansublikka, yashash manzili (qishloq yoki shahar)ga, muayyan ruhiy holatga, kim bilan so'rashayotganiga ko'ra, shuningdek boshqa muloqot vaziyatlariga qarab ham turlicha amalga oshirilishi mumkin. Salomlashish jarayonida noverbal vositalardan ham unumli foydalaniladi. Shuningdek, turli yoshdagi kishilar salomlashishlari yoki ko'rishishlarida ham o'zaro katta farq bor.

Eng avvalo, salomlashish turlari haqida gapirar ekanmiz, erkaklarning erkaklar bilan salomlashishi hamda erkaklarning ayollar bilan salomlashishini alohida guruhga ajratamiz. Misol tariqasida: *Jamshid o'zbeklarga xos lutf bilan salom berib, "Siz falonchi akamisiz?", "Sizni falonchi akam yo'qlayaptilar" deb latta chaynashni yoqtirmas edi. Eshik qiya ochilib, Elchin ko'rinishi bilan "Sizni*

Bek akam chaqiryaptilar” dedi-yu mashinasi tomon yurdi. (I kitob, 34-b.) - Og`ayni, tanishib olaylik, ismingiz nima edi? – Elchin bu yigitni avval yaxshi tanigan-u, shu damda ismini unutib qo`yganday so`radi. (I kitob, 35-b.) – Keyin... keyin, bir gap bo`lar... – Elchin shunday deb, xayrlashish uchun qo`l uzatdi. (I kitob, 155-b.) Asadbek ulardan hech mahal hol-ahvol so`ramasdi. Ikki oyoqda yuribsanmi – bas,ahvoling yaxshi, derdi. Shuning barobarida birovning hol so`rashini ham yoqtirmas edi. Tobi qochib qolgan kezlari uning odatini bilmagan odam: “Tuzukmisiz?” deb so`rasa, “Ha, o`lishim kerakmidi?” degan shirin javobni eshitardi. (I kitob, 165-b.) Misollardan ma`lum bo`ladiki, erkaklar o`zaro salomlashganda, ko`rishganda yoki xayrlashganda ularning nutq odobida bu ishni alohida lutf-u nazokat bilan amalga oshirishga ishtiyoqning yo`qligi erkaklar salomlashishidagi o`ziga xoslikni belgilaydi.

Erkaklar o`zaro so`rashishganda ham muayyan muloqot me`yorlariga amal qiladilar. Misol tariqasida *“Assalomu alaykum, salom berdik, salomlar bo`lsin, yaxshimisiz, omonmisiz, qalaysan, bormisan, o`, kimni ko`ryapman”* kabi birliklarni keltirishimiz mumkin.

Erkaklar bilan ayollar so`rashishlari haqida to`xtaladigan bo`lsak, bu jarayon ham o`zbeklarga xos odob-axloq qoidalariga qat`iy rioya etilgan holda bo`lib o`tadi.

Ayollarning o`zaro salomlashishlari – bu alohida mavzuiy guruh bo`lib, o`zbek nutq va muloqot odobidan kelib chiqqan holda uning naqadar boy manbaga asoslanishini ta`kidlashimiz zarur. Biroq asar bayonida bosh qahramonlar erkaklar bo`lgani uchun asosiy e`tibor ularning murojaat shakllariga qaratiladi. Ayollarda bu nutqiy vaziyat quyidagi hollarda uchraydi: *Hozir oshxona ostonasini hatlab chiqdi-yu, qo`rquvdan pirpirayotgan ko`zlarini eriga tikib, salom berdi. So`ng: - Yaxshi keldingizmi, adasi, - dedi. Bu gapini o`zigina eshitdi. Qo`rqibgina, astagina aytolgan so`zlar havoga singib ketdi. (II kitob, 121- b.) – Menman, oyi, assalomu alaykum. – Voy, bolaginamdan aylanay, kelgan bo`lsang o`rgilay, eson-omongina keldingmi, jon bolam, - u shunday deb o`rnidan turmoqchi bo`ldi. (III kitob, 145-b.)*

So`rashish jarayonining keyingi bosqichida suhbatdoshlar bir-birlarning hol-ahvoli bilan qiziqadilar. Odatda, o`zbek ayollari o`zaro uzoq so`rashishadi. Nutqimizda turg`un bo`lib qolgan so`rashish qurilmalaridan yozuvchi ham unumli foydaladi. Masalan, *“Esonmisiz, omonmisiz, bormisiz, yaxshimisiz, sog`-omongina yuribsizmi, bardam-baquvvatmisiz, adam (yoki boshqa oila a`zolari so`raladi, ba`zan ularning ismi aytib so`raladi) yaxshimilar, yaxshi yuribdilar, yaxshi bo`lib qoldingizmi, opoq bo`lib qoldingizmi, uychilar tinchmi”* kabi. Bu birliklar asar qahramonlari nutqining hayotiyeligini ta`minlashga xizmat qiladi. Bunday nutqiy birliklardan mahorat bilan unumli foydalangan adibning yutug`i ham aynan shunda, deb o`ylaymiz.

O`z navbatida, ayollarning so`rashish vaziyati mavzuiy guruhlariga ayollarning ayollar bilan ko`rishishlari, ayollarning erkaklar bilan ko`rishishlari kabi ikki katta guruhga ajratiladi. Ayollarning ayollar bilan salomlashish, so`rashish, ko`rishish yoki xayrlashish nutqiy vaziyatida qo`llovchi birliklar ayollarning erkaklar bilan ko`rishganda yoki salomlashganda qo`llaydigan birliklaridan farq qiladi.

To`y-hasham, mehmondorchilik va boshqa shodiyona kunlarda ishlatiluvchi mulozamat shakllarini o`rganar ekanmiz, ularning ham erkaklarning hamda ayollarning shunday nutqiy vaziyatda qo`llovchi birliklarini alohida ajratish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

Xursandchilik vaziyati erkaklarda ham, ayollarda ham muayyan ijobiy kayfiyat bag`ishlovchi nutq birliklaridan foydalanishni taqozo etadi. Masalan, *Bir ko`chani changitib ulg`aygan yigitlar fotiha to`yidan darak topishgan, ular uchun Afzalning harbiydan qaytgani bir shodlik bo`lsa, ulfatlaridan birining bo`ydoqlik qo`rg`onini buzib uylanayotgani o`n shodlik edi.* (I kitob, 11-b.) – *Uylanyapsanmi? Qutlug` bo`lsin. Shuni oldinroq aytmayсанmi?* – *Asadbekning qizini olyapman, - dedi do`stiga tikilib.* (I kitob, 21-b.) *Xizmat restoran xodimlariyu xodimalaridan ortmasa ham, “qamishdan bel bog`lab xizmat qilishni niyat etganlar” tinib-tinchishmasdi. To`y harakati ichkarida bo`lishiga qaramay, Asadbek turgan yerda ivirsishardi.* (I kitob, 216-b.) *Qiz kuyovnikiga ketar oldidan*

otasi huzuriga bosh egib keluvi, otaning esa duo qiluvi rasm edi. Zaynabni shu rasmga binoan boshlab keldilar, ammo o`z hovlisida emas, restoran ostonasida, mast-alast nigohlar guvohligida duo qilmog`i lozim bo`ldi. U ko`p yaxshi niyatlarni diliga tugib qo`ygan edi. Qizining mo`minlik bilan bosh egib kelayotganini ko`rganidayoq hushi uchdi, tomog`iga bir nima tiqildi. ... fotihaga qo`l ochdi. Hayajon o`ylab qo`ygan gaplarini to`zitib yuborgan edi. ... “Baxtli bo`lgin, qizim”, deyishdan o`zga so`z topolmadi. Qiziga yaqinlashib, peshonasidan o`pd. (I kitob, 238-239-b.). Ko`rib turganimizdek, erkak kishi muayyan xursandchilik vaziyatida hayajon tufayli erkaklarga xos qat`iyatlilikni biroz bo`lsa-da yumshatishi hamda uning xatti-harakatlarida erkaklarga xos nazokat va samimiylilik o`zgacha holatda namoyon bo`lishi mumkin.

To`y-hasham, mehmondorchilik, shodiyona kabi xursandchilik ruhi hukmron bo`lgan nutqiy vaziyatda ayollarning o`zlarini qanday tutishi yoki ayollarga xos tabiati qay holatda namoyon bo`lishini T.Malik “Shaytanat”da quyidagicha tasvirlaydi: Sovchilar ishni pishirgan, ertaga qizning uyida non sindiriladi (I kitob, 11-b.). Hovli etagida “oshxona” nomi bilan zikr etiluvchi bostirmaning eshigi zorlanib ochilib, Nasiba chiqib keldi. U eri tomon bir-ikki qadam qo`ydi. So`ng nima qilarini bilmay tosh kabi qotdi. Keyin beixtiyor ravishda yugurib kelib, Sharifni quchoqlab oldi. ... Ular ilk marta yolg`iz qolib bir-biriga aytishga so`z topolmay iymenib o`tirgan kelin-kuyovga o`xshashardi (III kitob, 109-b.) – Voy, aylanay, sizdan, egachi, tanimabmiza, Keling boshqatdan ko`rishaylik. Esonmisiz, omonmisiz... Biz o`g`irlikka keluvdig-a... (V kitob, 204-b.) Sovchilik marosimi ham yuz, balki ming yillar davomida bir qolipga tushgan. Xotinlar o`zlarini qanday tutishni, nima deyishni yaxshi biladilar. Mana hozir Manzura: “Hali tayyorgarligimiz ham yo`q”, dedi. Bu – qizimizni uzatishga rozimiz, ammo siz aytganday ertaga emas, balki indinga, degani. ... Lekin qizi bor odam noz qilmasa, “diplomatiya” qonun-qoidalari buziladi. Sovchilar uy sohibasining ko`nglini ko`taradigan bir-ikki gaplarni aytib, lutf ko`rgazib, o`rinlaridan jilishdi. Juvonlar biroz xijolat chekkach, biroz noz qilgan bo`lib, qog`oz xaltani olishdi. Bu ham diplomatiyaning bir qoidasi – rozilik alomatiga

ishora. Ertaga bu juvonlar tugun ko'tarib kelishadi. Manzura patir nonlarni olib qoladi. Oqshomda erkaklar kelishadi. (II kitob, 206-b.) Misollardan ma'lum bo'ladiki, o'zbek xalqi nutq odatida alohida olingan marosimlarda erkaklarning vazifalari, xatti-harakatlari hamda ayollarning vazifalari va har bir xatti-harakatlari izchillik bilan ishlab chiqilgan, adib aytganiday, yuz, balki ming yillar davomida shakllantirilgan. Shunday ekan, har bir jins vakillari o'z xoslik doirasidan chiqib ketmaydi.

Asarda ko'plab uchragan misollar orqali ajratilgan mavzuiy guruhlar orasida aza-motam yoki qayg'uli vaziyatlarda ishlatiladigan mulozamat shakllari alohida o'rin egallaydi. Bunday vaziyatda erkaklar nutqiga xos bo'lgan mulozamat shakllari, bizning tasavvurimizda, ayollar nutqida kuzatiladigan shu vaziyatdagi mulozamat shakllariga nisbatan birmuncha tor doirada, deb o'ylashimiz mumkin. Chunki, odatda, erkak kishi boshiga biron tashvish tushsa, uni boshqa birovga bildirishi, undan qandaydir munosabat, ayniqsa, taskin kutishi mumkin emas. Lekin asar bo'yicha to'plangan misollar tahlili buning aksini namoyon qildi. Erkaklar ham qayg'uli vaziyatda o'z dardini ma'lum usullar orqali ifodalar ekan. Bu ifoda uning xatti-harakatlari bilan bir qatorda nutqida ham aks etadi.

-Yomonmas-ku, mozorimizdan avliyolar ketib qolishibdi... Odamlardan iymon ko'tarilganmikin... – He... tentak, shumi topgan gaping, nima ekan debman. (IV kitob, 61-b.) *Hozir ham oshnasining gapni maydalashiga toqat qilolmadi: - Yorilsang-chi! – dedi u jerkib. – Mendan boshqa dardkashing bormi? ... Gapirish oson. “Yorilish” – xotinlarga xos. Erkak dardini aytguncha to'lg'oq azoblarini boshidan kechiradi.* (III kitob, 115-b.) *Tilla tishlari sug'urib olingan odam ixrashlarini bas qilgan, ammo uning zorli ovozi Sharifning quloqlariga muhrlanib qolgan edi. Kap-katta erkak odamning so'yishga mahkum etilgan buqaday o'kirishi, so'ng tul xotinday piqillab yig'lashi, keyin omonatini topshirishga qasd qilgan, so'nggi nafasleri bilan ingranayotgan bemor kabi ovoz chiqarishi faqat Sharifga atalganday edi.* (I kitob, 104-b.) *– Samandar ... o'ldimi? – dedi Jalil Asadning yengidan tortib. “Samandar o'ldi?!” “Samandar o'ldi...” Bu gap Asadning miyasiga to'qmoqdek urilib, tovonigacha zirillatib yubordi. Biroz nest*

bo`lib turdi-da, keyin uyga otilib kirdi. Asad ota o`rnida ota bo`lib ukasini so`nggi makonga qo`yib keldi. Qo`ni-qo`shnilar uni katta odamday ko`rib, ta`ziya izhor etishdi. (I kitob, 172-173-b.) – Sochimni bo`yab qoraytirishdan maqsad qaytadan yosharib gunoh qilish emas. Qora to`n motam ramzi bo`lgani singari, sochimni qoraytirishdan maqsad – o`tib ketgan yoshligimga motam tutishdir... (II kitob, 256-b.)

Biz misollarni berganda izohi bilan olishga harakat qildik, chunki bunday qayg`uli vaziyatning mohiyatini tushuntirish, dardning ko`lamini ochib berish uchun faqat bir gap yetarli bo`lmaydi. Erkaklar nutqida, xatti-harakatlarida ularning kulfatga munosabatini adib mohirlik bilan ochib bera olgan.

Ayollar bunday qayg`uli vaziyatlarda o`zlarini nisbatan erkin tutishlarini bilamiz. Asar qahramonlari holatida ham bu yaqqol namoyon bo`ladi. *Tongga yaqin onasining ingrayotganini eshitdi. (I kitob, 8-b.) Elchin birinchi kirganida “Oyijon!” deb o`zini himoya qilgan, jonholatda tipirchilagan qizni yenga olmadi. ... Keyingi safar qiz “Oyijon!” deb baqirganida Noilaning nolasini eshitganday bo`ldi. (I kitob, 93-b.) Jarangdor ovoz dohiyning o`lim topganini e`lon qilgach, radio yonida o`tirgan shop mo`ylovli erkak “voy, otam”, deb yig`lab yubordi. Bir yigit hushidan ketib shilq etib yiqildi. “Voy, endi nima qilamiz?” deb bir ayol chinqirdi. (I kitob, 173-b.) Chunki ayol yuksak madaniyat sohibasi edi. Bu gapdan dahshatga tushmadi, uvvos tortib yig`lab yubormadi. Indamay burildi-da, katta xona tomon yurdi... Ayol sigaret tutatdi. (II kitob, 187-b.) “Tug`moq boru, ko`mmoq yo`q ekan-da....” (II kitob, 188-b.)*

Nutqda doim iste`molda bo`lgan barcha boshqa vaziyatlardagi mulozamat-manzirat shakllari haqida to`xtalar ekanmiz, asardan to`plangan misollardan namunalardan keltirib, bunday neytral vaziyatlarda erkaklarga ham, ayollarga ham birdek xos bo`lgan, yoki boshqacha qilib aytganda, jinsga ajratilmaydigan alohida nutqiy birliklarning talaygina ekanligini qayd qilamiz. Masalan, *G`animlari bilan har kun, har soat olishuvchi, har daqiqa biror falokat ro`y berishi mumkinligini hisobda tutib yashovchi odam noxush damlarda tez fikrlashga, tez xulosa chiqarishga odatlanadi. (IV kitob, 24-b.) Ayollarning sochi uzun, aqli kalta,*

deganlar, ularning ko`ngli sezgir bo`lishini hisobga olmagan bo`lishsa kerak. Xonadonlari boshi uzra yopirilib kelayotgan abri baloni erlardan avvalroq sezdilar. Sezdilar-u, uni qaytarishga ojizlik qiladilar. (III kitob, 87- b.) Asadbek nima gapligiga tushundi. "Bundan ko`ra o`ldirishgani yaxshiroq edi, - dedi o`ziga –o`zi, - bu shunchaki tasodif". (II kitob, 127-b.)

Xulosa sifatida ta'kidlash joizki, asar matnida uchraydigan turli situativ vaziyatlarda erkaklar va ayollarning lisoniy ifodalari o`ziga xosligi bilan ajralib turadi.

Umumiy xulosalar

Bitiruv malakaviy ish tadqiqot natijalari quyidagi umumiy xulosalarni chiqarishga imkon beradi:

1. Badiiy adabiyot o'zining imkonoyatlari cheksizligi bilan ham katta ahamiyat kasib etadi. Chunki badiiy asarda tilning bor imkoniyatlaridan ochiq va ijodiy foydalanish, asarda tasvirni jonli, ta'sirli tarzda ifodalash hamda hissiy-ekspressiv bo'yoqdorlikni oshirish mumkin bo'ladi. Har bir asarning badiiy qiymatini belgilashda til, albatta, muhim ahamiyat kasib etadi. Badiiy asarning til xususiyatlarining yoki badiiy tasvir ifoda vositalarini o'rganishda faqat tilshunoslik yoki adabiyotshunoslik nuqtayi nazaridan o'rganib bo'lmaydi. Har bir asarning sotsiolingvistik tilini o'rganishda til va jamiyat o'zaro bir-biridan uzilmagan holatda ya'ni bir-biriga bog'liq holda o'rganishni taqozo qiladi.
2. Tohir Malik o'z asarlarida o'zbek tilining estetik vazifalarini nechog'lik mukammal bajara olishini isbotlagan. Ijodkor asarlarida badiiy tasvir ifoda vositalarni qo'llaganki, bu yozuvchining tilimizdagi bor imkoniyatlardan nechog'lik foydalana olishini ko'rsatib beradi.
3. Tohir Malikning ko'p asarlari detektiv asarlar bo'lganligi uchun turli xil tabaqa va guruh vakillari bo'lishi tabiiy. Shunday ekan ijodkor asarlarida argo hamda jargonni so'zlarini mahorat bilan qo'llagani aniq. Ijodkor asarlarida shunday argo va jargon so'zlarni qo'llaganki, bunday so'z va iboralar asarning jonli chiqishiga yordam bergan. Bunday vositalar hissiy ekspressiv ta'sirchanlik kuchini oshira olgan.
4. O'zbek tili oddiy xalq so'zlashuv tili turli-tuman bo'lib har bir hududning o'ziga xos jonli so'zlashuv tili bor. Tohir Malikning asarlaridagi voqealar, asosan, Toshkent hududlarida kechadi va shuning uchun ham asarlarda Toshkent shevasi ko'p uchraydi. Ba'zi bir o'rinlarda Farg'ona shevasini ham ko'rishimiz mumkin. Ijodkor sheva so'zlarini qo'llash orqali mahalliy xalq koloritini ochib bera olgan.

5. Yozuvchi o'z qahramonlarini o'zlari yashaydigan hudud va muhitdan ayirmagan holda, hayotdagidek ishonarli va jonli tasvirlash ehtiyojidan kelib chiqib shevaga xos so'zlarni ishlatadi.
6. Tilshunoslikda vulgarizmlar deb ataluvchi qo'pol so'zlarda o'ta salbiy munosabat, kamsitish, mensimaslik, haqorat kabi bir qator ifoda semalari juda ochiq ko'rinib turadi. Bunday so'zlar ko'proq nominativ ma'nolariga ko'ra emas, ayni shu konnotativ ma'nolariga ko'ra nutqda yashaydi. Ma'lumki, jamiyatning o'ziga xos qatlami bo'lmish qimorbozlar, o'g'rilar, fohishalar hamda shu kabi ijtimoiy tabaqaga mansub odamlar bilan munosabatga kirishuvchi qonun himoyachilari va boshqa insonlar nutqida shunday so'zlarning iste'molda bo'lishi kuzatiladi. Tohir Malik asarlarining ko'pchiligi ayni shu mavzularga bag'ishlangani uchun ham bunday qo'pol, haqoratli va salbiy ma'no bo'yoqdorligiga ega so'zlar, ayniqsa, erkaklar nutqida ko'plab uchraydi.
7. Muayyan tilda muloqot qiluvchilar uchun o'sha tildagi noma'lum, notanish, tushunarsiz yoki kam tushunarli bo'lgan so'zlar agnonimlar degan nom bilan umumlashtiriladi. Agnonimlar lingvosentrik emas, balki antroposentrik hodisa hisoblanadi. Ya'ni, buni tildan foydalanuvchining lisoniy layoqati bilan bog'liq hodisa deb qabul qilish mumkin. Bunday agnonimlarni asar matnida ko'plab uchratish mumkin. Asosan, o'g'irlik va qimorbozlik, giyohvandlik va noqonuniy olamga ilk bor duch kelgan erkak jinsiga mansub qahramonlar nutqida kuzatiladi.
8. Argo va jargon so'zlar tilning iste'mol doirasi chegaralangan leksikaga kirsa ham o'zbek tilini boyitishda ularning qaysidir tomondan ahamiyati muhim.
9. Argo va jargon so'zlar bizga asarni o'qish yoki o'rganish jarayonida asar qahramonlarining qaysi tuzum, davr guruh yoki tabaqa vakili ekanligini aniqlashimizda yordam beradi.
10. Sotsiolingvistika haqida fikr yuritish qaysidir ma'noda til va jamiyat bilan bog'liq tushunchalarni nazariy jihatdan tekshirish va o'rganishni taqozo

etadi. Bunda, shubhasiz, til va jamiyat o`rtasidagi turli xil munosabatlar uzviy mushtaraklik kasb etadi. Xulosa shuki, til va jamiyat o`rtasidagi ana shu aloqadorlik sotsiolingvistikani yaxlit tizimga ega bo`lgan fan sifatidagi imkoniyatlarini belgilaydi.

11. Til onomastik tizimining jamiyat rivoji bilan bog`liq muammolari “sotsiolingvistika” termini ostida bo`lmasa-da, nomshunoslar tomonidan doim o`rganib kelingan, chunki onomastik tadqiqotlarni nolingvistik omillarni ham yetarli hisobga olmasdan amalga oshirish mumkin emas.
12. Sotsiolingvistika yangi davrga yuz tutmoqda. Kelajakda biz tilshunoslar, jamiyatshunoslar va til tarixchilarining hamkorlikda sotsiolingvistika sohasidagi tadqiqot natijalarini, yutuqlarini ko`rishga umid qilamiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. – Toshkent; 1997.
2. Akbarova Z. O'zbek tilida murojaat shakllari va ularning lisoniy tadqiqi. Filol.fan.nom...diss. Toshkent, 2007.
3. Ahmedova N. O'zbek tilida murojaat birliklarining semantik-konnotativ tadqiqi. Filol.fan.nom...diss. Toshkent, 2008.
4. Ахманова О.С. Словарь лингвистических терминов. Москва, «Советская энциклопедия», 1969.
5. Бондалетов Б.Д. Социальная лингвистика. М., 1987. С.10.
6. Hojiev A. Tilshunoslik terminlarining izohli lug'ati.–Toshkent, 2002.
7. Isayeva M. Badiiy dialogik nutqda qo'llanuvchi ba'zi vulgarizmlarning gender xususiyatlari haqida // Tilshunoslikning dolzarb masalalari (ilmiy maqolalar to'plami, VI kitob). Toshkent, 2013.
8. Iskandarova Sh. O'zbek nutq odatining muloqot shakllari. Filol.fan.nom...diss. avtoreferati. - Toshkent, 1994.
9. Mo'minov S. O'zbek muloqot xulqining ijtimoiy-lisoniy xususiyatlari. Filol.fan.dokt.diss. Toshkent.- 2000, 56-b.
10. Nafasov T. Nafasov Sh. Atoqli otlarga xos umumiy xususiyatlar // Joy nomlari- xalq tili va ma'naviyatining nodir me'rosi. Navoiy, 1998. 50-bet.
11. Никонов В. А. Предисловие// Антропонимика. М., 1970. С.10.
12. Nurmonov A. Tanlangan asarlar II jild. Toshkent, 2012.
13. Sayfullayeva R., Mengliyev B., Boqiyeva G., Qurbonova M.va boshq. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – T.: FTM, 2009.
14. Сотсиолингвистический аспект имени собственного (обзор). М., С.5.

15. T. Malik “Shaytanat” qissasining I, II, III, IV kitoblari. Toshkent, 2006.
16. T. Malik “Talvasa” qissasi. Toshkent, 2002.
17. Yo'ldoshev M. Badiiy matn lingvopoetikasi. Toshkent, Fan, 2008.
18. Yo'ldoshev M. Badiiy matnning lisoniy tahlili. Toshkent, Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2010.
19. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. 8-jild. Toshkent, 2004. 26-bet.
20. O'zbek tilining izohli lug'ati. Moskva. Русский язык 1981.
21. <http://www.roman.by/r-54571.html>